



## MUNDARIJA

<b>K I R I S H</b> .....	3
<b>I BOB. ANTONIMIYA NAZARIYASI TILSHUNOSLAR TALQINIDA.</b>	
1.1. Antonimiya hodisasining lingvistik tavsifi	
1.2. Antonimiya nazariyasiga doir lingvistik qarashlar	
1.3. Frazeologiya fani va unda antonimiya leksik- semantik hodisa sifatida.....	7
<b>I bobga xulosa</b> .....	23
<b>II BOB. LEKSIK ANTONIMIYA - FRAZEOLOGIK PARADIGMATIKA OB’EKTI SIFATIDA.....</b>	25
2.1. Leksik antonimiya hodisasining yasalish usullari .....	25
2.2. Frazeologiyada so’z-antonimlar semantikasining xilma-xilligi	
2.3. Frazeologiya ichki sistemasida leksik antonimiyaning ifodalanish xususiyatlari .....	28
<b>II bobga xulosa</b> .....	34
<b>III BOB. FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA - SEMANTIK HODISA SIFATIDA.....</b>	35
3.1. Frazeologiyada semantik oppozisiyaning ifodalanish usullari	35
3.2. Fransuz frazeologiyasida sifat va ravish frazeologik antonimiya vositasi sifatida.....	40
3.3. Frazeologik predloglarnig antonimik xususiyatlari .....	
3.4. Frazeologik antonimiyaning maqollarda aks etishi .....	42
<b>III bobga xulosa</b> .....	45
<b>X U L O S A</b> .....	47
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI</b> .....	50
<b>ILOVA. Antonim frazeologik birliklar ro’yxati</b> .....	55

## K I R I S H

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tilshunoslik borasida xorijiy tillarni chuqur o'rganishga qiziqqan yosh mutaxassislar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu o'rinda yurtboshimiz I. Karimovning yoshlarga qarata aytilgan quyidagi so'zlarini qayd erish o'rinlidir: *“Мен ёшларимизга, менинг болаларимга қарата, ўрганишдан ҳеч қачон чарчаманглар, деб айтмоқчиман. Ўрганиш, интилиш ҳеч қачон айб саналмайди. Ниманидир билмасанг, уни ўрганиш зарур. Авваламбор, энди ҳаётга кириб келаётган ёшларга нима лозим? Ўрганиш, ўрганиш ва яна бир бор ўрганиш керак. Касб ўрганган, илм ўрганган киши, ўзбекона айтганда, ҳеч қачон кам бўлмайди.”*<sup>1</sup>

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa yoshlarning jahon hamjamiyatida o'ziga xos o'rin egallashga intilayotganini ko'rsatadi. Xalqimizning chet el mamlakatlari bilan hamkorlikda xorijiy tillarni mukammal o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa fransuz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi gaplari fikrimiz isbotidir: *“O'zbek bolasiga chet tillarning ajib dunyosiga bemalol kirishi uchun imkoniyatlarini to'liq ochib berishimiz darkor. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganish milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak.”*<sup>2</sup>

Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, fransuz tilini har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu magistrlik dissertatsiyaimizda fransuz

---

<sup>1</sup> И.Каримов. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш –энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –Б. 240.

<sup>2</sup> I.A. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: 2000, -B. 188.

frazeologiyasidagi antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi.** Tanlangan mavzuning dolzarbligi fransuz frazeologiyasidagi antonimiya hodisasini leksik va grammatik nuqtai nazardan tahlil qilgan holda frazeologiyadagi leksik va frazeologik antonimiya o'rtasidagi farqli va o'xshash xususiyatlarni fransuz tili doirasida aniqlash orqali tilshunoslikda universal qoidalarni yaratish imkoni mavjudligi bilan izohlanadi. Tilning frazeologik qatlamiga mansub antonim frazeologik birliklarni fransuz tili misolida ko'rib chiqish fransuz frazeologiyasidagi til universalialaridan biri bo'lgan antonimiya hodisasini chuqur o'rganishga, unga xos lingvistik mohiyatni tavsiflashga, qolaversa, ularni badiiy matnlarda o'qib tushunish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri hisoblangan fransuz frazeologiyasi tadqiqot ob'ektini tashkil etsa, undagi aynan antonim frazeologik birliklar esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Ushbu magistrlik dissertatsiyaning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad fransuz tili frazeologiyasida mavjud antonimiya hodisasini frazeologik birliklar ichki konteksti doirasida ikki xil tarzda namoyon bo'lishi, ya'ni leksik va frazeologik antonimiya hodisalarini tavsiflash va ularning o'zaro mutanosib va nomutanosib qirralarini ochib berishdan iboratdir.

**Tadqiqot vazifalari.** Tadqiqot oldiga qo'yilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi:

- Antonimiya hodisasining lingvistik mohiyatini tavsiflash;
- Antonimiya nazariyasiga doir lingvistik qarashlar tahlilini keltirish;
- Frazeologiya fani va unda leksik va frazeologik antonimiya o'rtasidagi semantik munosabatlarni namoyon etish;

- Leksik antonimiya hodisasining yasaliş usullarini izohlash;
- Frazeologiyada soʻz-antonimlar semantikasini tavsiflash;
- Frazeologiya ichki sistemasida leksik antonimiyaning ifodalanish xususiyatlarini namoyon etish;
- sifat va ravish fransuz frazeologiyasida frazeologik antonimiya vositasi sifatida xizmat qilishini tavsiflash;
- Frazeologik antonimiya xususiyatlarini predloglar misolida ochib berish;
- Frazeologik antonimiyaning maqollarda aks etishini tavsiflash.

***Tadqiqotning ilmiy yangiligi.*** Frazeologiyaning sistem talqinidagi antonim frazeologik birliklar yasalişidagi semantik, leksik va derivatsion qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradigan umumtilshunoslik tavsifiga hissa qoʻshishdan iborat.

***Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.*** Tilshunoslikda fransuz frazeologiyasiga doir muammolar avvalambor, A.G.Nazaryan tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Ayniqsa, antonim frazeologik birliklarning oʻziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari A.I.Alyoxina tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. Biroq, bizning tadqiqot bu xususdagi maʼlumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar va tushuntirishlar, qolaversa, ularning oʻzbekcha talqini nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali antonim frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlashi bilan ajralib turadi. SHuningdek, fransuz frazeologiyasidagi antonimiya hodisasini ikki xil shaklda paydo boʻlishi, yaʼni leksik va frazeologik antonimiya hodisalarining differensial xususiyatlarini ochib berish ishning asosiy masalasini tashkil etadi.

Ishda asosiy farazlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tilda mavjud universalialardan biri hisoblangan antonimiya hodisasi soʻz va soʻz birikmalari oʻrtasidagi leksik-semantik vosita;

- leksik va frazeologik antonimiya tamoyillari o'rtasida differensial semantik belgilar mavjud;

- leksik va frazeologik antonimiya o'rtasidagi farqli tamoyillar ular o'rtasidagi binar oppozitsiyaning semantik xilma-xilligi bilan bog'liq ;

- fransuzcha antonim frazeologik birliklar o'ziga xos struktur-semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi;

- fransuzcha antonim frazeologik birliklarning stilistik buyoqdorligi ko'p hollarda frazeologiyadagi ikkirejalilik tamoyillariga asoslanadi.

***Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi.*** Prezidentimiz I.A. Karimovning fan va ta'limni rivojlantirish borasida yozgan asarlari, shuningdek, tilshunoslikning frazeologiya, qolavrsa, grammatika, leksik-semantika, stilistika borasidagi nazariy yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borgan V. G. Gak, A.G.Nazaryan, N.F.Aliferenko, V. Alexina, SH. Rahmatullaev, A. E. Mamatov, A.M.Bushuy, Yo'ldoshev B., shuningdek, bir qancha romanist tilshunoslar, xususan, J. Franckel, M. Riegel singari tilshunoslarning umumlingvistik va leksikologik qarashlari asos qilib olingan va bu kabi tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

***Tadqiqot metodlari.*** Tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy, komponent-oppozitiv, statistik va distributiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

***Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati.*** Frazeologiyaning sistem talqinidagi antonim frazeologik birliklar yasalishining semantik, struktur, funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashtirildi. Xususan, magistrlik dissertatsiyaida antonim frazeologik birliklar shakllariga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem ko'rsatkichlar tavsiflandi, fransuzcha antonim frazeologik birliklarning o'ziga xos xilma-xilligi namoyon etildi.

***Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.*** Magistrlik dissertatsiyadagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika hamda leksikologiya fanlarini o‘qitishda, qolaversa, fransuz frazeologiyasi borasidagi maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

***Magistrlik dissertatsiyaning tuzilishi*** qo‘yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslangan holda kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro‘yxati va antonim frazeologik birliklarning ilovasidan iboratdir.

## I BOB.

### ANTONIMIYA NAZARIYASI TILSHUNOSLAR TALQINIDA

#### 1.1. Antonimiya hodisasining lingvistik tavsifi

Antonimlar tildagi qarama-qarshi ma'noli birliklar bo'lib hisoblanadi. V.Fon Gumboldt tilshunoslik fanining problematikasini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo'shishga harakat qildi.

V.Gumboldt ta'rificha, til murakkab bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir, shuning uchun ham tilni ilmiy o'rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushunishda antonimiya (qarama-qarshi) metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tilning tabiatiga xos asosiy antonimiyalar quyidagilar:

Birinchi antonimiya: til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama-qarshiligidir. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkurdan ajralib qolishi mumkin emas.

Ikkinchi antonimiya: til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomondan, til faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, faoliyat mahsulidir. Tilda so'zlovchi har bir kishi nutq faoliyati jarayonida tilning rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shadi. SHu bilan birga til insoniyat jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyliklarini mujassamlashtiradigan va avloddan-avlodga o'tib boradigan konkret tarixiy normadir.

Bu antonimiyadan ko'rinib turibdiki, V. Gumboldt til bilan nutqning tilshunoslik fanining ob'ektlari sifatida ajratib o'rganish masalasini ilgari surgan. Demak, ikkinchi antonimiya til bilan nutqning o'zaro munosabati masalasidan iborat.



Uchinchi antonimiya; nutq va tushunish antonimiyasidir. V. Gumboldt ta'rifiga ko'ra nutq bilan nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tomonini tashkil etadi.

To'rtinchi antonimiya; tildagi ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarini o'z ichiga oladi. V. Gumboldtning fikricha, har bir individ insoniyat kollektivi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Sub'ektiv hodisa sifatida esa har bir so'zlovchi o'zining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun o'z hissasini qo'shadi.

Beshinchi antonimiya; tildagi kollektiv va individual xususiyatlaridir. Ma'lumki nutq ayrim shaxslarning mahsulidir, ammo ayrim shaxslar o'zlaridan oldingi avlod tomonidan yaratilgan kollektiv mahsulidir.

Frazeologik antonimiya umumlug'at antonimiyasiga xos muammoning xususiy bir bo'lagi sifatida o'rganiladi. Shunday ekan, ushbu semantik kategoriyaga tegishli aloqalarning xususiyatlari to'g'risidagi muammoning paydo bo'lishi tabiiydir.

Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish mantiqiy jihatdan zid tushunchalarga ega bo'lgan frazeologik birliklar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi. Umumiy kategorial tushunchalarni o'zida aks ettirgan antonimik frazeologik birliklarning mantiqiy asosini bir-biriga teskari bo'lgan tushunchalar tashkil etadi. Shu tariqa antonimiya hodisasi tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligini taqozo etadi va tilda til birliklarining semantik qarama-qarshi munosabatlarini kuzatadi.<sup>1</sup>

Tilshunoslikda frazeologiyaga doir muammolar avvalambor, A.V.Kunin, Amosova N.N. lar tomonidan keng tarzda tadqiq

---

<sup>1</sup> Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. М., 2000. №4. – С. 56-57.

qilingan. Ayniqsa, antonim frazeologik birliklarning o'ziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari A.I.Alyoxina tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. Biroq, bizning tadqiqot bu xususdagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar va tushuntirishlar, qolaversa, ularning o'zbekcha talqini nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali antonim frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlashi bilan ajralib turadi. Bu kabi tilshunoslikning frazeologiya, qolaversa, grammatika, leksik-semantika, stilistika borasidagi nazariy yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borgan N.N. Amosova, A.V.Kunin, D. Barskaya va A.M.Bushuy singari tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi. Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish mantiqiy jihatdan qarama-qarshi tushunchalarga ega bo'lgan frazeologik birliklar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi.<sup>1</sup>

Frazeologiyaning sistem talqinidagi frazeologik birliklar yasalishining semantik, struktur, funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashtirilgan. Xususan, antonim frazeologik birliklar shakllariga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem ko'rsatkichlar tavsiflangan, fransuzcha antonim frazeologik birliklarning o'ziga xos xilma-xilligi namoyon etilgan.

Frazeologik antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlar leksik antonimlar bilan taqqoslanganda tilshunoslik sohasida nisbatan yangi tadqiqot ob'ekti paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi zamon fransuz tilida qolaversa, boshqa bir qator tillarda

---

<sup>1</sup> Тираспольский Г.И. Система языка и системность в языке// филоло-гические науки. М., 1999. №6. - С. 37-38

leksik va frazeologik antonimlar hech qachon qiyosiy tadqiq etilmagan.

Vaholanki, tadqiq qilinayotgan birliklarning borliq hodisalarini ifodalash qobiliyati bilan belgilanadigan mazmunga xos jihatlarini o'rganish tilda sistem aloqalarni o'rnatishni va shuningdek, til nominatsiyasi muammosini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan muhim zaruratni keltirib chiqaradigan sabablarni o'rganishni taqozo etadi.

Qarama-qarshi turish kategoriyasi tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik va frazeologik antonimlar orqali ifodalanadi. Tildagi ushbu qarama-qarshilik kategoriyasi, ya'ni antonimiya hodisasi til lug'at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanganligi bois tilning frazeologik sistemasida ham leksik sistemasidagi singari sinonimlar, polisemiyalar va antonimlarning paradigmatic munosabatlari mavjud bo'lib, ular til lug'at tarkibini yagona bir sistemaga birlashtiruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Fransuz tili frazeologiyasida antonamiya hodisasida insonlarning his-to'yg'ulari, ichki kechinmalarini ifodalovchi antonamiya hodisalari mavjud. Fransuzcha frazeologik antonamiya hodisasi birikmalar orasidagi xuddi shunga o'xshash insonlarning ichki-kechinmalari fe'l so'z tukumiga xos bo'lgan so'zlar bilan birikib ko'plab frazeologik birliklarni hosil qilishi mumkin. Masalan:

*être content-xursand bo'lmoq*

*Etre mécontent -xafa bo'lmoq*

Aynan simmetrik tarzda bo'lgan FBlar, ya'ni bir-biriga mos kelgan antonimiyalar FBlardir. Aynan semmetrik bo'lgan antonim FBlar ma'nosi jihatidan ham mazmuni jihatidan ham bir-biriga mos keladigan antonimiyalar

hisoblanishadilar. Biz aynan simmetrik bo'lgan antonimiyalarga bir necha misollar keltirib o'tamiz. Masalan:

*Etre fort de* - kuchli bo'lmoq,

*Etre faible de* - kuchsiz bo'lmoq

*Avoir la main heureuse* - omad kulib boqmoq,

*Avoir la main* - omad yuz ugirmoq,

*Avoir peur de* - qo'rqmoq,

*Avoir du courage* - jasur bo'lmoq ,

*Avoir l'air malade* - kasalmand ko'rinishda bo'lmoq,

*Avoir une bonne* - sog'lom ko'rinishda bo'lmoq.

Aynan simmetrik bo'lmagan antonimiya ya'ni bunga mazmun jihatdan qandaydir farq qiladigan antonimlar kiradi. Masalan:

*Arriver a bon port* - osoyishta hayot kechirmoq ,

*avoir des paroles ensemble avec qn* - birov bilan janjallashmoq,

*avoir le coeur noye* - juda ko'p suv ichmoq,

*avoir le gosier sec* - suvsizlikdan chanqamoq

*faire la quete* - soqqa so'ramoq,

*faire les largesses* - choy-chaqa bermoq,

*vivre en seigneur* - boy-badavlat yashamoq,

*être dans le lac*- tang ahvolda qolmoq.

Aynan simmetrik bo'lgan antonim FBlar va aynan simmetrik bo'lmagan antonim FBlar fransuz frazeologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Aynan semmetrik bo'lmagan antonim FBlar mazmun jihatidan farq qiladigan va qandaydir ma'nosi to'g'ri kelmaydigan antonimlar hisoblanadi. Ular tilda keng tarzda qo'llanilib, nutqning, qolaversa go'zal tilimizning nutqiy gultoji hisoblanadi. Bundan tashqari antonimiya hodisasi frazeologik birliklarda kuzatilganda ularning maxsus lug'atlari shakllanmaganligi, qolaversa, ularni har birini alohida lingvistik ma'nolariga ko'ra farqlab olgan holda bir-biriga qarama-qarshi ma'noda tanlash lozimligi ko'zga tashlanadi. SHunday ekan,

fransuz tili frazeologik birliklari o'rtasidagi antonimiya hodisasini tahlil qilish va ularni o'zbek tiliga talqin qilishning bir necha usullari mavjud bo'lib, shulardan fransuzcha "comme" o'xshatish vositasi orqali ifodalangan frazeologik birliklar hamda ularning o'zbek tiliga talqin qilish usullari borasida mulohaza yuritmoqchimiz.

Fransuzcha "comme" komponentli frazeologik birliklar antonimik ma'no hosil qilishning eng sermahsul vositalaridan biri sanaladi. Fransuz frazeologiyasida bunday frazeologik birliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan: *fort comme un boeuf* ; *rond comme une boule*; *fleurer comme baume*; *ecrire comme un ange*; *froid comme (du,le,un) marbre*; *mince comme un fil* ;  *paresseux comme un loir*; *sobre comme un chameau*; *doux comme un agneau*; *mou comme du cotton*; *savant comme un livre*; *muet comme une carpe*.

Fransuz tilida "comme" komponenti ishtirokidagi bunday frazeologik birliklar asosan sifatli va fe'lli frazeologik birliklarni tashkil etadi. Ma'lumki, antonimik ma'no hosil qilish morfologiyada ham asosan, sifat va fe'llar orasida juda keng tarqalgan. Biroq ularni o'zbek tiliga talqin qilishda aynan ulardagi o'xshatish komponentlari bo'yicha ancha e'tiborli bo'lish talab etiladi.

Tilda mavjud o'xshatish vositalari asosan ma'lum bir ob'ekt boshqa bir ob'ektning xususiyatiga ko'ra o'xshash ekanligini ifodalashga qaratilgan bo'ladi. Lekin fransuzcha "comme" komponentli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga talqin qilishda ularning ikki tomonidagi o'xshatish ob'ektlari aynan tarjima qilinsa, talab qilingan ma'no kelib chiqmasligi mumkin. Masalan, *lent comme un escargot* iborasini olaylik. Ushbu frazeologik ibora o'zbek tiliga talqin qilinganda ularni aynan tarjima orqali talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Negaki, uni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, *chig'anoq kabi sekin* deb tarjima qilinadi. Ammo o'zbek tilida juda sekin harakatlanishga nisbatan *chig'anoq* obrazi emas, balki *toshbaqa* obrazi orqali

ifodalash an'ana tusiga kirgan, ya'ni *lent comme un escargot* iborasi o'zbek tiliga *toshbaqadek sekin*, deb talqin qilinadi.

Ushbu frazeologik birlikning antonimi, ya'ni bu ma'noga qarama-qarshi bo'lib hisoblangan *rapide comme l'éclair* iborasi o'zbek tiliga *yashin kabi tez*, deb talqin qilinadi. Chunki o'zbek tilida *yashin tezligida* degan ibora mavjud. Shunga asosan *rapide comme l'éclair* iborasini *yashin kabi tez*, deb talqin qilish mumkin. Bunda fransuz tilidagi *l'éclair* so'zi *nur* yoki *yog'du* degan ma'noni anglatadi. Biroq u aynan tabiat hodisasi hisoblangan *yashin* ma'nosini anglatmaydi.

Bunday frazeologik iboralarni fransuz tilida ko'plab uchratish mumkin. Ularni o'zbek tiliga tarjima yoki ma'nosini talqin qilish jarayonida asosan ular tarkibidagi qiyoslash ob'ektlari muhim ahamiyatga ega. Agar ulardagi qiyoslash ob'ektlari fransuz tilida qanday bo'lsa ularni o'zbek tiliga o'g'irishda ham aynan shu obrazlardan foydalanilsa, iboraning to'liq ma'nosi chiqmasligi mumkin. Bunday hollarda aynan ushbu iboraning o'zbek tilidagi variantlari bilan talqin qilish o'rinlidir. Masalan, *laborieux comme une abeille* iborasini o'zbek tiliga *asalaridek mehnatkash* deb emas, balki, *chumolidek mehnatkash*, deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, fransuz tilida yana shunday iboralar uchraydiki, ularni o'zbek tiliga o'g'irishda o'xshatish obrazlarisiz tarjima qilinishi ham mumkin. Masalan,  *paresseux comme un loir* iborasini o'zbek tilida tushunarli bo'lishi uchun hech qanday qiyoslash obrazlarisiz *o'taketgan dangasa* yoki *o'ta yalqov* deb tarjima qilish mumkin.

Biroq fransuzcha *comme* komponentli frazeologik birliklar orasida aynan qiyoslanish komponentlari bilan to'liq o'zbek tilidagi shakllariga mos keladiganlari ham uchraydi. Masalan, *leger comme un oiseau* iborasi o'zbek tiliga talqin qilinganda *qushdek yengil* ma'nosini anglatadi. Bunda *yengillik* xususiyatining ikkala tilda ham bir xil obraz, ya'ni *qush* obrazi bilan taqqoslanishi kuzatilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, *comme* komponentli fransuzcha antonimik ma’noli frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga talqin qilishda fransuz tilidagi qiyoslash ob’ektlari o‘zbek tiliga umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda ularni ushbu til sohiblarining madaniyati va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda umumiy semantik ma’noni saqlagan tarzda talqin qilish maqsadga muvofiq.

## **1.2. Antonimiya nazariyasiga doir lingvistik qarashlar**

Tilshunoslikda fransuz frazeologiyasiga doir muammolar avvalambor, A.G.Nazaryan tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Ayniqsa, antonim frazeologik birliklarning o‘ziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari A.I.Alyoxina tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. Biroq, bizning tadqiqot bu xususdagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar va tushuntirishlar, qolaversa, ularning o‘zbekcha talqini nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali antonim frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlashi bilan ajralib turadi.

Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish mantiqiy jihatdan zid tushunchalarga ega bo‘lgan FBlar ma’nosini qarama-qarshi qo‘yishga asoslanadi. Shunga ko‘ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o‘rtasidagi majburiy bog‘liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi. Insonga xos xususiyatlar kabi umumiy kategorial tushunchalarni o‘zida aks ettirgan antonimik FBlarning mantiqiy asosini bir-biriga teskari bo‘lgan tushunchalar tashkil etadi. Shu tariqa antonimiya hodisasi tushunchalarning mantiqiy qarama-qarshiligini taqozo etadi va tilda til birliklarining semantik qarama-qarshi munosabatlarini kuzatadi.<sup>1</sup>

Tilshunoslikda frazeologiyaga doir muammolar avvalambor, A.V.Kunin, Amosova N.N. lar tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan. Ayniqsa, antonim

---

<sup>1</sup> Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. – М., 2000. - №4. – С. 56-57.

frazeologik birliklarning o'ziga xos leksik-semantik, grammatik va stilistik xususiyatlari A.I.Alyoxina tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. Biroq, bizning tadqiqot bu xususdagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ularni sodda misollar va tushuntirishlar, qolaversa, ularning o'zbekcha talqini nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali antonim frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni amaliy tarzda izohlashi bilan ajralib turadi. Bu kabi tilshunoslikning frazeologiya, qolaversa, grammatika, leksik-semantika, stilistika borasidagi nazariy yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib N.N. Amosova, A.V.Kunin, D. Barskaya va A.M.Bushuy singari tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi. Frazeologiyada antonimiya hodisasini tahlil qilish mantiqiy jihatdan qarama-qarshi tushunchalarga ega bo'lgan FBlar ma'nosini qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Shunga ko'ra har qanday til birligining mazmuni uning ichki mantiqiy mazmuni o'rtasidagi majburiy bog'liqlik mavjudligini keltirib chiqaradi<sup>1</sup>.

Frazeologiyaning sistem talqinidagi frazeologik birliklar yasalishining semantik, struktur, funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashtirildi. Xususan, magistrlik dissertatsiyada antonim frazeologik birliklar shakllariga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem ko'rsatkichlar tavsiflandi, fransuzcha antonim frazeologik birliklarning o'ziga xos xilma-xilligi namoyon etildi.

Frazeologik antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlar leksik antonimlar bilan taqqoslanganda tilshunoslik sohasida nisbatan yangi jabha paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi zamon fransuz tilida qolaversa, boshqa bir qator tillarda leksik va frazeologik antonimlar hech qachon qiyosiy tadqiq etilmagan.

Vaholanki, tadqiq qilinayotgan birliklarning borliq hodisalarini ifodalash qobiliyati bilan belgilanadigan mazmunga xos jihatlarini o'rganish

---

<sup>1</sup> Тираспольский Г.И. Система языка и системность в языке//филологические науки. М., 1999, №6, -С. 37-38



tilda sistem aloqalarni oʻrnatishni va shuningdek, til nominatsiyasi muammosini qayta ishlash bilan bogʻliq boʻlgan muhim zaruratni keltirib chiqaradigan sabablarni oʻrganishni taqozo etadi.<sup>1</sup>

Qarama-qarshi turish kategoriyasi tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik va frazeologik antonimlar orqali ifodalanadi. Tildagi ushbu qarama-qarshilik kategoriyasi, yaʼni antonimiya hodisasi til lugʻat tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanadi.

Tilning frazeologik sistemasida ham leksik sistemasidagi singari sinonimlar, polisemiylar va antonimlarning paradigmatic munosabatlari mavjud boʻlib, ular til lugʻat tarkibini yagona bir sistemaga birlashtiruvchi asosiy «oʻzak» hisoblanadi.<sup>2</sup>

### **1.3. Frazeologiya fani va unda antonimiya leksik-semantik hodisa sifatida**

Frazeologiyada leksik-semantik sath tilning bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ikki katta boʻlimini oʻz ichiga oladi. Bular leksikologiya (grekcha *lexikos* – *soʻzga oid* va *logos* – *oʻrganish*) va semasiologiya. Oʻrganadigan materialiga koʻra leksikologiya ikkiga boʻlinadi: xususiy leksikologiya, yaʼni u yoki bu til leksikologiyasi (masalan, fransuz, oʻzbek, rus, fransuz, nemis va boshqa tillar leksikologiyasi) va umumiy leksikologiya. Umumiy leksikologiya barcha tillarga tegishli muammolarni oʻz ichiga oladi va turli xil til materiallariga eʼtibor qaratadi. Umumiy va xususiy leksikologiya bilan bir qatorda qiyosiy va solishtirma (kontrastiv) leksikologiya ham mavjud. Qiyosiy leksikologiya birinchi navbatda qardosh tillarning oʻxshash tomonlarini, solishtirma leksikologiya esa nafaqat qardosh

---

<sup>1</sup> Болотнова Н.С. О некоторых особенностях и новых направлениях стилистических исследований художественной речи в конце XX в. // Русистика: Лингвистическая парадигма конца XX века. – СПб., 1999. – С. 120-123.

<sup>2</sup> Ожегов С.И. О структуре фразеологии // Лексикографический сборник. Вып. 2. – М., 1957. – С. 31-32.

tillar, balki qardosh bo'lmagan tillardagi o'xshash va mos tomonlarni o'rganadi.

So'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan keng muammolar ko'lamini semasiologiya predmeti o'z ichiga oladi. «Semasiologiya» atamasi grekcha *semacia* – *ma'no* va *logos* – *o'rganish* so'zlaridan tashkil topgan. Ba'zi hollarda grekcha *semaino* – *ifodalayman* degan ma'noni anglatadi.

«Semasiologiya» atamasiga sinonim sifatida «semantika» atamasi ham ishlatiladi. So'z ma'nosiz umuman mavjud bo'lmasligi kabi leksikologiya va semantika ham bir-birlarisiz mavjud bo'lmaydi.

Leksikologiya tilning butun lug'at tarkibini o'rganadi. U leksika tarkibidagi tarixiy o'zgarishlarni aniqlaydi, aniq tamoyillar asosida boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar, arxaizmlar, neologizmlar, badiiy til leksikasi, jargonli, hududiy, shevaga xos terminologik, mutaxassislikka oid va boshqa leksik jihatdan bo'lingan so'zlarning turli xil leksik kategoriyalari va turlarini ko'rib chiqadi.

Semasiologiyaning o'rganish obyekti umuman tilga xos ma'no emas, balki leksik ma'nodir. Semasiologiya til leksikasini ma'lum bir aniq nuqtai nazar, ya'ni ma'no aspekti nuqtai nazaridan o'rganadi. Demak, butun leksikani leksikologiya o'rganar ekan, semasiologiya esa uning ma'lum bir bo'limi hisoblanadi va u leksikologiyaga nisbatan tobedir.

Semasiologiya leksik birliklarning ma'noviy tomonini o'rganadi va u leksik ma'no tabiati, turlari, so'z ma'nosining rivojlanish qonuniyatlari, so'z ma'nosi o'zgarishining turli xil tasniflashga doir muammolarini hal etadi. XIX asr an'anaviy tilshunosligida semasiologik tadqiqotlarning asosiy vazifasi alohida so'z va FBlarga xos semantik o'zgarishning turlarini va kelib chiqish sabablarini tadqiq qilishdan iborat edi. Til lug'at tarkibini sistema sifatida o'rganish va tildagi alohida ma'noli elementlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish XX asr boshlarida til tarixidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Leksik-semantik sath leksik birliklarga xos ma'noviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma-xillikning o'ziga xosligini, ularning bir-biri bilan va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan bo'lgan o'zaro aloqadorligini (leksik paradigmatika), so'zga xos belgilarning semantik xilma-xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini (leksik sintagmatika) o'z ichiga oladi.

O'z nomidan, ya'ni «leksik-semantik» atamasidan ko'rinib turibdiki, u sistemaning ikki xil tabiatini o'rganadi. Birinchidan, leksik semantika tilning semantik sarhadlarida grammatik semantikadan farq qiladi. Ikkinchidan, ushbu sistema yordamida so'z semantikasining lug'at elementi sifatida bo'linishi yuz beradi.

Leksik sistemani tashkil etadigan nominativ vositalar majmuini lug'at tarkibidan farqlashda til sistemasi, lug'at strukturasi va leksik-semantik sistemalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlarida so'z va uning ma'nolari o'rtasidagi o'zaro murakkab aloqaning natijasi va ushbu natijalarni umumlashtirishni aks ettiradi. Bunday o'zaro aloqa tilning ikki sohasi, ya'ni nominative-tasnifiy va leksik birikish bo'yicha amalga oshadi.

Shuning uchun ham leksik-semantik kategoriyalar ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchisi ko'p ma'noli so'zlarning leksik-semantik guruhini aks ettirib, tilda semantik variantlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'z ma'nolariga ega (leksemalar kabi). Leksemalarning nutqda amalga oshishidagi birliklar *so'z ishlatish* va *leksam* deb ham ataladi. Bu yerda *leks* – nutq birliklarining belgilari asosida analogiya bo'yicha tashkil topgan atama (ya'ni *morf* (morfema) va *fon* (fonema) kabi). So'zning til birligi va nutq birligi sifatida qarama-qarshi qo'yilishi boshqa atamalar bilan ham berilishi mumkin, masalan, *so'z-leksema* va *so'z-bo'lak*. A.I.Smirnitskiy ularni leksik-semantik variantlar (LSV) deb ataydi.<sup>1</sup> Boshqacha qilib aytganda, biz so'zlarning har bir aktda qo'llanish jarayonida uning aktual

---

<sup>1</sup> Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1959. – С. 42

(nutqiy) ahamiyatiga e'tibor qilamiz. G. Paul so'zning butun mazmunini va ahamiyatini ular ishtirok etadigan alohida aktlarda terminologik jihatdan farqlab berdi, ya'ni birinchisini uzual, ikkinchisini esa okkazional ma'no deb nomlaydi.<sup>1</sup>

Leksik-semantik kategoriyaning ikkinchi turi ma'lum bir so'zning ma'nolar majmuini emas, balki bir necha so'zlardan tashkil topgan so'zlar guruhining ma'nolarini aks ettiradi. So'zlarni alohida guruhlariga ajratish va tasvirlash, so'zlarning mikrostruktura va paradigmalari, ularni tasniflovchi belgilar, alohida paradigmalarda so'zlar o'rtasidagi ichki aloqaning o'rnatilishi va so'zlarning boshqa so'z guruhlarini bilan bo'lgan aloqalari leksik-semantik sistemaning umumiy tadqiqot muammolari tarkibiga kiradi va uning asosiy hal qiluvchi vazifalaridan birini tashkil etadi.

Leksik-semantik sathning asosiy birligini leksema, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi. So'z so'z birikmalari tarkibiga kiradi, so'z yasovchilar va morfologik kategoriyalarni qurishda ishtirok etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma-xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi<sup>2</sup>.

Barcha zamonaviy tilshunoslar so'zni tilning eng asosiy birliklaridan biri deb hisoblash bilan birga, uning belgi tabiatiga ega ekanligini ham tan oladi. Buning uchun so'zning ma'lum predmet va tovushlar majmui o'rtasidagi shartli aloqaga asoslangan holda aniq bir predmet haqida tushuncha paydo qilish xususiyati boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi. So'zning jaranglashi (tovushga xos qiyofasi) va borliq hodisasi o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Agar bu shunday bo'lmaganda edi, barcha predmet

---

<sup>1</sup> Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960. – С. 94.

<sup>2</sup> Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: ВШ, 1979. –С.147.

va hodisalar turli xil tillarda turlicha emas, balki bir xil nomlangan bo'lar edi.

So'z tilning asosiy funksional-struktur va yuqori darajali assimetrik birligi hisoblanadi. U semantik va morfologik strukturalarga hamda murakkab semantik tarkibga ega bo'lib, bu xususiyatlar so'zlarning grammatik guruhlari uchun xarakterli bo'lgan konkret leksik ma'nolarda qat'iy tarzda farqlanadi.

So'z umumsemantik tarkibda umumlashgan kategorial belgi hisoblanadi. U ma'lum bir semantik guruhga kiradigan so'zga xos belgini qabul qiladi. Masalan, so'zning ma'lum semantik turi bilan mos keladigan sema individual so'z semantikasi tarkibiga kiradi. Ko'pchilik tillarda to'liq ma'noli so'zlarga o'xshash semalar u yoki bu so'z turkumiga va leksik-grammatik turga tegishli bo'lishi orqali o'zlarining shakliy ifodasini topadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tilga xos har qanday belgi, masalan, so'z yoki FBlar ikki tomonlama mohiyatga ega, ya'ni material qiyofa birligi va mazmun birligi. Bular borliqning ma'lum bir parchasini aks ettirgan holda mustahkamlanadi va bir vaqtning o'zida tilning boshqa elementlari bilan bo'lgan turli xil munosabatlardan o'rin oladi. «So'z, deb yozadi V.V.Vinogradov, borliqdagi predmet va hodisalarning turli xil tomonlarini umumiy jihatdan aks ettirgan holda ularning real aloqalari boshqa so'zlar bilan bo'lgan aloqalariga mos keladi va turli xil predmetli–ma'noviy hamda stilistik guruhlarda ular bilan aloqa o'rnatadi». U bu haqdagi fikrini yana shunday davom ettiradi: «So'zning leksik ma'nosi nafaqat uning berilgan tushunchaga mos kelishiga bog'liq, balki til sistemasining o'ziga xos xususiyatlariga va so'z turkumlari qonuniyatlariga aloqadorligi bilan ham bog'liq bo'lib, bu holat til sistemasida so'zlarning emotsional va ekspressiv bo'yoqlari orqali konkret leksik aloqalar bilan aniqlanadi»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. – М., 1982. – С.6, 83-84.

Agar til sistemasi turlicha munosabat, aloqa va tarmoqlar majmui bilan tavsiflansa, u holda tilga xos bunday umumlashmalarning har biri tilni tashkil etadigan birliklarning lingvistik tabiatiga asoslanadi, sistema tasvirining o'zi esa ushbu birliklar tasviri asosiga quriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar FBlarga ham taaluqli bo'lib, ular so'zlar singari nominativ va kommunikativ funksiyalarga ega bo'lgan til belgisi hisoblanadi. Leksik-semantik sath leksik birliklarga xos ma'noviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma-xillikning o'ziga xosligini, ularning bir-biri bilan va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan bo'lgan o'zaro aloqadorligini, so'zga xos belgilarning semantik xilma-xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini o'z ichiga oladi.

Tilga xos har qanday belgi, masalan, so'z yoki FBlar ikki tomonlama mohiyatga ega, ya'ni material qiyofa birligi va mazmun birligi. Bular borliqning ma'lum bir parchasini aks ettirgan holda mustahkamlanadi va bir vaqtning o'zida tilning boshqa elementlari bilan bo'lgan turli xil munosabatlardan o'rin oladi.

Tildagi frazeologik sistema tushunchasini ochib berish ob'ektning o'zini, ya'ni frazeologiyani tasvirlash jarayoni bilan bog'liq. Bunda undagi birliklar tarkibi, ular o'rtasidagi til va nutq sistemasini qamrab olgan aloqa va munosabatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Shularni ta'kidlash joizki, sintaktik erkin so'z birikmalar fransuz tilidagi mustaqil so'z turkumlarining bir qancha turlarini to'ldirishning muhim manbai hamda til leksik tarkibini boyitishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanar ekan, erkin so'z birikmasi bilan frazeologik birlik o'rtasidagi farqni anglab etish lozimdir. Negaki, ular bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Zero, erkin so'z birikmalar turg'un so'z birikmalardan, ya'ni frazeologik birliklardan o'z tarkibidagi mavjud so'zlarning so'zma-so'z leksik ma'nosi bilan ahamiyatli sanalsa, turg'un so'z birikmalar esa, tarkibidagi mavjud

soʻzlarning umumiy yigʻindisi orqali ifodalanayotgan leksik maʼnosi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida idiomatiklik, turgʻunlik, obrazlilik va boshqa xususiyatlarni koʻrsatish mumkin. Keltirilgan xulosalar FBlarning lingvistik mohiyatini aniqlashdagi turli xil izohlarga imkon yaratar ekan, bu holat ularni soʻz va mustaqil soʻz birikmalaridan farqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iborat:

1) FBlar soʻzdan farqli oʻlaroq ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam boʻlmagan mustaqil soʻz mavjud boʻlgan tilga xos alohida koʻrinishli murakkab birlikdir;

2) FBlar mustaqil soʻz birikmalaridan farq qilgan holda oʻzlaridagi turgʻunlik darajasining turlicha ekanligiga qaramasdan, oʻz leksik tarkiblarining turgʻunligi bilan, soʻz birikmalari esa oʻz elementlari oʻrtasidagi sintaktik aloqaning erkinligi bilan tavsiflanadi;

3) FBlarning eng muhim va xususiyatli struktur belgilaridan biri ularning alohida soʻzlardan yasalganligi boʻlib, bunday xususiyat fransuz tilidagi FBlarni soʻzlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va maʼno birligiga ega boʻlgan turgʻun nofrazologik birliklardan farqlay olmaydi;

4) FBlar gapiruvchi nutqida oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, balki ular tilda oldindan tayyor holatda boʻlsa, soʻz birikmalari esa nutq jarayonida toʻgʻridan-toʻgʻri hosil boʻladi;

5) Soʻz birikmalari tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap boʻlaklari boʻla olsa, FBlar tarkibidagi elementlar oʻrtasidagi grammatik munosabatlar esa faqat shu birikma ichidagina amal qila oladi yoxud FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap boʻlagi oʻrnida kelishi mumkin.

#### **1.4. Leksik va frazeologik antonimiya o'rtasidagi semantik munosabat**

Ushbu bo'limning asosiy maqsadi borliqni ifodalovchi yoki nominatsiya turlariga bog'liq bo'lgan leksik hamda frazeologik antonimlar o'rtasidagi semantik farqni aniqlashdan iborat. Frazeologik antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlar leksik antonimlar bilan taqqoslanganda tilshunoslik sohasida nisbatan yangi jabha paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Hozirgi zamon fransuz tilida qolaversa, boshqa bir qator tillarda leksik va frazeologik antonimlar hech qachon qiyosiy tadqiq etilmagan.

Vaholanki, tadqiq qilinayotgan birliklarning borliq hodisalarini ifodalash qobiliyati bilan belgilanadigan mazmunga xos jihatlarini o'rganish tilda sistem aloqalarni o'rnatishni va shuningdek, til nominatsiyasi muammosini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan muhim zaruratni keltirib chiqaradigan sabablarni o'rganishni taqozo etadi.<sup>1</sup>

Qarama-qarshi turish kategoriyasi tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik va frazeologik antonimlar orqali ifodalanadi. Tildagi ushbu qarama-qarshilik kategoriyasi, ya'ni antonimiya hodisasi til lug'at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanadi.

Frazeologik antonimiya umumlug'at antonimiyasiga xos muammoning xususiy bir bo'lagi sifatida o'rganiladi. Shunday ekan, ushbu semantik kategoriyaga tegishli aloqalarning xususiyatlari to'g'risidagi muammoning paydo bo'lishi tabiiydir.

Biz frazeologik antonimlarning yasalishidagi sifatiy farqning roli haqida batafsilroq to'xtalmoqchimiz. Fransuz tilida qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi o'nlab FBlarni uchratish mumkin. Bunday FBlarning fransuz tilida ko'pchilikni tashkil etishi ularning mazmun strukturasiidagi turli xil

---

<sup>1</sup> Болотнова Н.С. О некоторых особенностях и новых направлениях стилистических исследований художественной речи в конце XX в. // Русистика: Лингвистическая парадигма конца XX века. – СПб., 1999.– С. 120-123.



qo‘shimcha semantik belgilar vositasida aniqlashtirishga asoslanadi. Bunday FBlar tarkibida son jihatdan sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar FBlar o‘rtasidagi farqning xususiyatini ko‘rsata olmaydi.

Ulardagi qarama-qarshilik ma‘nolari mavhum belgini ifodalashi ham mumkin. Mavhumlik boshqa xususiyatlardan ajralib turadigan ma‘lum xususiyat sifatida tushuniladi. FBlarda mavhum belgilar aniq ifodaga ega bo‘ladi va yangi aniqlovchilar hamda yangi ma‘lumotlar bilan boyiydi.

Qarama-qarshi qo‘yilgan belgilar referensial xilma-xillikning paydo bo‘lishiga olib keladi. Agar qarama-qarshi qo‘yilayotgan belgilar aniq ahamiyat kasb etsa, u holda ular shuncha aniq, obrazli va namunali tarzda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, leksik antonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo‘yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo‘yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari ob‘ektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo‘ladi.

Leksik va frazeologik antonimlarning yuqorida ko‘rsatilgan o‘ziga xos xususiyatlari turlicha nominatsiya usullarida, ya‘ni tildan tashqari voqelikni til vositasida u yoki bu obraz orqali aks ettirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Til birliklari nominatsiya nazariyasida borliq hodisalarini ifodalash usullari jihatidan ikki sinfga bo‘linadi. Birinchi sinfga ob‘ekt belgilarining majmuini aks ettiradigan birliklar kiradi. Nominatsiyaning shunga o‘xshash turi sintetik yoki murakkab nominatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi sinfga ob‘ektni ma‘lum bir belgiga ko‘ra tavsiflovchi birliklar kiradi. Bunday birliklar analitik nominatsiyaga tegishlidir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Мошанская О.Л. Картина мира в художественном восприятии англосаксов и древних русичей // Филологические науки. – М., 2000. – №1. – С. 32-33.

Mavhum belgilarni ifodalovchi va xabar beruvchi vazifasini bajaradigan sifatlar predikatli leksikaga tegishli bo'lib, ular kam ma'nolilikni va semantik elementarlikni keltirib chiqaradi. Bu narsa sifatlar o'rtasida rivojlangan antonimik munosabatlarning shakllanishiga bog'liqdir.

Shunday qilib, predmet va hodisalarni tavsiflovchi leksik jihatdan antonim bo'lgan sifatlar analitik nominatsiyaga xos birliklar hisoblanadi.<sup>1</sup> Bir-biri bilan antonimik munosabatda bo'lgan FBlar bir paytning o'zida bir nechta belgilarni ifodalagan holda ko'p belgili strukturaga egaligi bilan tavsiflanadi. FBlarning ma'noviy tarkibida turli xil semantik belgilarning mavjudligi ifoda referensial ko'lamining oshishiga olib keladi. Qarama-qarshi ma'noli FBlar orasida aniq va ko'rgazmali referentni shakllantiruvchi ko'p obrazli belgilar majmuini o'zida aks ettiradigan birliklar ham ko'p uchraydi.

Ko'p obrazli referentlarni o'zida mujassamlashtirgan frazeologik antonimlar ma'noning ancha to'liq va obrazli bo'lishini taqozo etadi. Chunki aniq sifat va insonga xos ma'lum xislat shaxsning ma'lum turiga xosdir. Leksik antonimlar esa qoidaga binoan boshqa belgilardan ajralib turadigan alohida xususiyatni ifodalaydi.

Shunday qilib, antonim FBlar predmetlarni belgilar jihatidan tavsiflovchi ko'p belgili semantik birliklar hisoblanib, nominatsiyaning sintetik birligi guruhiga kiradi.

Frazeologik birliklarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishda albatta, ular o'rtasida semantik umumiylikning mavjud bo'lishi shart va shundagina ularni frazeologik antonimlar deb nomlash mumkin.

Tilning frazeologik sistemasida ham leksik sistemasidagi singari sinonimlar, polisemiyalar va antonimlarning paradigmatic munosabatlari

---

<sup>1</sup> Новикова Н.С., Черемисина Н.В. Многомирие в реалии и общая типология языковых картин мира // Филологические науки. – М., 2000. - №1. – С. 40-41.

mavjud bo‘lib, ular til lug‘at tarkibini yagona bir sistemaga birlashtiruvchi asosiy «o‘zak» hisoblanadi.<sup>1</sup>

Agar so‘nggi yillarda leksik antonimiya masalasini o‘rganish ancha jadal tus oldi, deb hisoblaydigan bo‘lsak, FBlar antonimiyasi bo‘yicha faqat sanoqligina tadqiqot ishlari olib borilganligining guvohi bo‘lamiz (ular asosan fransuz, nemis va rus tillari materiallarida kuzatilgan).

Ma‘no ko‘chishining obrazli tarzda amalga oshishi va turg‘unlikning alohida shakllar bilan ifodalanishi tufayli FBlar antonimiyasi leksik antonimiyaga qaraganda ancha murakkab hodisa hisoblanadi va shuning uchun ham bu borada maxsus muhokama talab etiladi.

Frazeologik antonimiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini FBlarning struktur va semantik ko‘rinishlaridan izlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, frazeologik antonimiya hodisasini o‘rganishda leksik antonimiya borasida erishilgan natijalar va umumiy qonuniyatlarga rioya qilish zarur.

Odatda leksik antonimiya hodisasini o‘rganish alohida leksik grammatik turkum doirasida olib boriladi. Qoidaga binoan, antonimiya hodisasida u yoki bu so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan alohida bir juft so‘z simmetrik ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi talab qilinadi.<sup>2</sup>

Keyingi vaqtlarda bir qator tadqiqotchilar tematik doiradagi antonimik munosabatlarni muhokama qilish jarayonida o‘xshash muhit elementlarining har qanday holda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi tilga xos antonimiyadir, degan xulosaga keldilar. Antonimiya hodisasini xuddi mana shunday tushunish maqsadga muvofiq, qarama-qarshi ma‘noli ma‘lum bir FBlar o‘rtasidagi antonimik binar simmetrik qarama-qarshilikni farqlash har doim ham mumkin emas. Yuqorida keltirilgan frazeologik antonimlar semantik stilistik jihatdan bir xilligi bilan tavsiflanadi, ya‘ni ular bir ma‘no ottenkalariga yo‘l qo‘ymagan holda butun ma‘no ko‘lami bo‘yicha qarama-

---

<sup>1</sup> Ожегов С.И. О структуре фразеологии // Лексикографический сборник. Вып. 2. – М., 1957. – С. 31-32.

<sup>2</sup> Протасова Е. Ю. Функциональная прагматика: вариант психолингвистики или общая теория языкознания? // Вопросы языкознания. – М., 1999. - №1. – С. 142-143.

qarshi qo'yiladi va bir xil stilistik ahamiyati bilan farq qiladi. Bunday simmetrik qarama-qarshilik shu narsa bilan izohlanadiki, ma'lum frazeologik antonimlar bir xil sintaktik strukturaga ega bo'ladilar. Xususan, ular o'z asosini tashkil etuvchi bir xil leksik tarkib va obrazga egadirlar. Ammo FBlar antonimiyasini bunday tarzda ifodalash fransuz tilining yagona ifoda usuli emas.

Antonimik munosabatlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan bir xil strukturali frazeologik antonimlardan tashqari turli xil sintaktik strukturaga, leksik tarkibga va obrazga ega bo'lgan FBlar o'rtasida ham kuzatilishi mumkin.

Shunga o'xshash turli xil strukturali frazeologik antonimlarni farqlashdagi ma'lum qiyinchiliklardan biri shundan iboratki, yuqorida qayd etilgan FBlar sinonim-antonimik qatorni tashkil etishi bilan birga, sinonim FBlar bo'lib hisoblanadi

Ulardagi ichki shakllar yig'indisi umumiy ma'nolarini keltirib chiqaradi. Ularning tarkibidagi so'zlar FB'larni tavsiflaydi va ulardagi umumiy ma'nolarga aniqlik kiritadi.

Umumiy ma'noli FB'larning mavjudligi bir ma'noli simmetrik antonim juftlarni topish mumkin emasligidan dalolat beradi. Bunday FBlar faqat denotativ-signifikatif komponentlarning ma'nolari bo'yicha qarama-qarshi qo'yiladi. Qo'shimcha semantik ma'nolar antonimik qarama - qarshilikka xos emas. Antonimik FB'larga xos ma'nolarning konnotativ komponentlari qoidaga binoan aniq tarzda qarama-qarshi bo'la olmaydi. Shuningdek, assotsiativ psixolingvistik tajriba natijalari ham FB'larni bir mezonda simmetrik tarzda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish imkoni yo'qligini tasdiqlaydi. Informantlar har bir FB bir nechta FBlar bilan antonim bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

## I bobga xulosa

1. Frazeologiya leksik-semantik sath obykti sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, leksik-semantik sathning asosiy birligini leksema, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi. So'z so'z birikmalari tarkibiga kiradi, so'z yasovchilar va morfologik kategoriyalarni qurishda ishtirok etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma-xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi.

2. Frazeologiyada, asosan frazeologik antonimiya hodisasida ichki va tashqi kontekst ikki frazeologik birlik o'rtasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari esa xuddi tilning leksik qatlamidagi singari leksik birliklar yordamida aks etadi. Ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish kabi so'zlar shular jumlasidandir. Ya'ni ushbu vositalar bilan ifodalanish turlari bir gap yoki ikki gap va so'zlarning o'rtasida amalga oshadigan jarayondir.

3. Fransuz tilida qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi ko'plab FBlarni uchratish mumkin. Bunday FBlarning fransuz tilida ko'pchilikni tashkil etishi ularning mazmun strukturasiidagi turli xil qo'shimcha semantik belgilar vositasida aniqlashtirishga asoslanadi. Bunday FBlar tarkibida son jihatdan sodir bo'layotgan o'zgarishlar FBlar o'rtasidagi farqning xususiyatini ko'rsata olmaydi.

4. Leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari ob'ektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi.

5. Leksik va frazeologik antonimlarning yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlari turlicha nominatsiya usullarida, ya'ni tildan tashqari voqelikni til vositasida u yoki bu obraz orqali aks ettirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Mavhum belgilarni ifodalovchi va xabar beruvchi vazifasini bajaradigan sifatlar predikatli leksikaga tegishli bo'lib, ular kam ma'nolilikni va semantik elementarlikni keltirib chiqaradi. Bu narsa sifatlar o'rtasida rivojlangan antonimik munosabatlarning shakllanishiga bog'liqdir.

6. Bir-biri bilan antonimik munosabatda bo'lgan FBlar bir paytning o'zida bir nechta belgilarni ifodalagan holda ko'p belgili strukturaga egaligi bilan tavsiflanadi. FBlarning ma'noviy tarkibida turli xil semantik belgilarning mavjudligi ifoda referensial ko'laminig oshishiga olib keladi.

7. Frazeologik birliklarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishda albatta, ular o'rtasida semantik umumiylikning mavjud bo'lishi shart va shundagina ularni frazeologik antonimlar deb nomlash mumkin.

8. Frazeologik antonimiyaning o'ziga xos xususiyatlarini FBlarning struktur va semantik ko'rinishlaridan izlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, frazeologik antonimiya hodisasini o'rganishda leksik antonimiya borasida erishilgan natijalar va umumiy qonuniyatlarga rioya qilish zarur.

9. Odatda leksik antonimiya hodisasini o'rganish alohida leksik grammatik turkum doirasida olib boriladi. Qoidaga binoan, antonimiya hodisasida u yoki bu so'z turkumiga tegishli bo'lgan alohida bir juft so'z simmetrik ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi talab qilinadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Протасова Е. Ю. Функциональная прагматика: вариант психолингвистики или общая теория языкознания? // Вопросы языкознания. – М., 1999. - №1. – С. 142-143.

## II BOB.

### LEKSIK ANTONIMIYA - FRAZEOLOGIK PARADIGMATIKA OB'EKTI SIFATIDA

#### 2.1. Leksik antonimiya hodisasining yasalish usullari

Mohiyatan grek tilidan o`zlashgan *anti* (“*en face de, contre et de onoma*” *significant “nom” ou “mot”* ) so`zi qarama-qarshi ma`nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi . “*Rien n`est si dangereux qu`un ignorant ami; Mieux vaudrait un sage ennemi.*” (Jean de LA FONTAINE *Fables*).

Til universalialaridan biri sanalgan antonimlar asosini esa antiteza tashkil etadi. Binobarin, antiteza badiiy asarlarida keng qo`llaniluvchi hamda ma`no jihatdan ifodali g`oyalar va so`zlarning tabiiy oppozitsion usulidir<sup>1</sup>.

Fransuz tilida antonimlarning yasalish usullari bir qancha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki so`zga bir xil suffiksning qo`shilishi orqali:

*Anglophile- Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarni yoqlash.;*

*Anglophobe- Angliya va inglizlarga xos barcha narsalarga qarshi odam;*

*centripète-markazga intiluvchi;*

*centrifuge-markazdan qochuvchi.*

Bu misollarda sifatlarning amashinishi orqali antonimik so`zlarni yasash mumkinligi ifodalangan.

Bundan tashqari bir o`zakli so`zga *in-/il-/im-/ir-* kabi prifekslarning qo`shilishi orqali ham antonim so`zlarni hosil qilish barcha tillarga xos sermahsul usullardan birdir. Masalan:

*capable-qobiliyatli / incapable-qobilyatsiz;*

*lettré-o`qimishli / illettré-o`qimishsiz;*

*prudence-ehtiyotkor / imprudence-ehtiyotsizlik;*

*réel-haqiqatdan mavjud / irréel- noreal;*

---

<sup>1</sup> Abdouchoukourova L.A Stylistique du français modern Tachkent-2004 –p 37.

Shuningdek, *mal-/mé-, dis-, a- /an-* prifekslarining sifat yoki ot oldidan qoʻshilishi orqali ham antonimik soʻzlarni hosil qilish mumkin.

Masalan: *aimé-sevilgan / mal-aimé-sevilmagan, yomon koʻrilgan;*

*entente-kelishuv / mésentente-kelishmaslik;*

*courtois-xushmuomilali / discourtois-moumilasiz;*

*normal-normal, oʻrtacha / anormal-odatdagidek emas ;*

Fransuz tilida antonimik soʻzlar aynan feʻllar misolida koʻrib chiqilganda, ularning *dé-/dés-, mé-/més-* kabi prifekslar orqali hosil boʻlishi eng sermahsul usullardan biri sanaladi. Masalan:

*Faire-qilmoq, bajarmoq / défaire-buzmoq, yiqitmoq, vayron qilmoq*

*Sʻintresser-qiziqmoq / se désentresser-befarq qaramoq,*

*Connaître-tanimoq, bilmoq / méconnaître-tanimaslik, bilmaslik*

*Estimer-hurmat qilmoq / mésestimer- hurmatlamaslik, izzatlamaslik*

Bundan tashqari, fransuz tilida antonimlar yasashning shunday bir turi mavjudki, ular prifekslar oʻrnida ishlatilib, maʼno jihatdan ham ancha antonimik xususiyatlarni oʻzlarida aks ettiradi. Masalan, quyidagi misollarga eʼtibor qilaylik, ular *hypo/hyper, sous/sur, micro/macro...* kabi antonimik prifekslarni oʻz ichiga oladi:

*Hypocalorique-kam kaloriya, kam quvvat*

*Hypercalorique-koʻp kaloriya, quvvatli*

*Sous-estimer- past baho bermoq, nazar pisand qilmaslik*

*Sur-estimer- ortiqcha, yuqori baho bermoq*

*Microcosme-mikrokosm(mikroskop orqaligina koʻrinadiga kichik unsur)*

*Macrocosme- koinot, olam*

Son oppozitsiyasini yasashda *mono/poly, uni/omni, uni/bi* prifekslarining oʻrni beqiyos ahamiyatga ega. Masalan:

*Monogame-bir nikohli, monogam, bir jinsli*

*Polygame-koʻp xotinli, koʻp nikohli*

*Unidirectionnel-yagona boshqaruv*



*Omni-directionnel*-ko`p tarmoqli boshqaruv

*Unilateral*-bir tomonlama, bir tomonga yo`naltirilgan

*Bilateral*-ikki tomonlama, ikki yoqlama

Ikki hodisa o`rtasidagi qarama-qarshi holatnini yuzaga keltiradigan yana shunday prifeksal shakllar mavjudki, ular berilgan so`zning ma`no ko`lamini o`zgartirishga xizmat qiladi. Bular quyidagilardan iborat : *exo / endo, extra / intro, intra / intro, ex / in, im, infra / supra, super* . Ularga shunday misollar keltirish mumkin:

*Exogène*-(qui provient de l`extérieur);

*Endogène*-(qui prend naissance à l`intérieur);

*Extraverti*-odamga qo`shiladigan, ulfat bo`ladigan, dilkash;

*Introverti*-odamovi, o`zi bilan o`zi ovora bo`luvchi odam;

*Exporter*-jo`natmoq *importer*-qabul qilmoq;

*Infrastructurale*- ichki struktural;

*Superstructurale*- tashqi struktural.

Fransuz tilida vaqt konseptini ifodalovchi oppozision prifekslar ham mavjud. Ular fransuz tilida *néo/paléo, anti/post, avant/après, pro/retro* kabi prifekslar sanalib, ko`pchilikni tashkil etadi.

*Néolithique*-neolitik yangi tosh davri;

*Paléolithique*-paleolit, eng qadimgi tosh davri;

*Antidater*-o`tgan, o`tib ketgan sana bilan rasmiylashtirmoq;

*Postdater*-oldingi sana bilan belgilamoq;

*Avant-guerre*-urushdan oldin;

*Après-guerre*-urushdan keyin;

*Prospective*-jamiyatning ertangi rivojiga oid;

*Retrospective*-o`tmishga qaratilgan, o`tmishga oid.

Shu tariqa fransuz tilida antonimik so`zlarning yasaliş usullaridan prifeksatsiya usuli juda keng tarzda mavjud ekanligini ta`kidlash o`rinlidir.

Fransuz tilida antonimlarning yasash usullari bir qancha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki soʻzga bir xil suffiksning qoʻshilishi, prifekslarning qoʻshilishi orqali ham antonim soʻzlarni hosil qilish barcha tillarga xos sarmahsul usullardan birdir. Ulardan ikki hodisa oʻrtasidagi qarama-qarshi holatni yuzaga keltiradigan bunday prifeksal va suffiksal shakllar berilgan soʻzning maʼno koʻlamini oʻzgartirishga xizmat qiladi.

## **2.2. Frazologiyada soʻz-antonimlar semantikasining xilma-xilligi**

Til universaliyalaridan biri sanalgan antonimiya hodisasi qarama-qarshi turish kategoriyasini oʻzida aks ettirgan holda tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik shakllar orqali ifodalanadi. Tildagi ushbu qarama-qarshilikning ichki va tashqi kategoriyasi, yaʼni antonimiya hodisasi til lugʻat tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu leksik hodisaga nisbatan keltirilgan quyidagi taʼriflar ham yuqoridagi fikrimiz dalilidir: *Antonymie : relation entre deux mots de sens opposée (M.F.Mortureux. La lexicologie entre langue et discours. Armand Collin VUEF, 2001. –P. 188) ; Le terme d’antonymie est, en générale, utilisée dans les dictionnaires pour suggérer qu’il y a un relation d’opposition ou de contrariété entre deux termes (M.Arrivé, F.Gadet, M.Galmiche. La grammaire d’aujourd’hui. –Paris, 1986. –P. 66 ).*

Shunday qilib, leksik antonimlarning oʻziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qoʻyiladi. Xuddi ushbu holat frazeologik birliklar ifodalaydigan semantik maʼnolarga nisbatan qoʻllanilganda, ikki frazeologik birlik oʻrtasidagi qarama-qarshi maʼno, yaʼni frazeologik antonimiya hodisasi paydo boʻladi. Masalan:

<b><i>n'avoir pas froid aux yeux;</i></b>	<b><i>avoir du sang de poulet;</i></b>
Ma'nosi : <i>être courageux ;</i>	Ma'nosi : <i>être lâche, poltron, sans</i>
Tarjimasi : <i>mard, jasur bo'lmoq;</i>	<i>énergie;</i>
	Tarjimasi : <i>qo'rqoq, lapashang</i>
	<i>bo'lmoq;</i>

Agar fransuz tilidagi *courageux* va *lâche* so'zlari o'rtasidagi qarama-qarshilik ma'nosini so'zlararo amalga oshayotganligini inobatga olgan holda leksik antonimiya, deb hisoblasak, *n'avoir pas froid aux yeux;* hamda *avoir du sang de poulet;* kabi frazeologik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshilik ma'nosini frazeologik iboralararo amalga oshayotganligini inobatga olgan holda frazeologik antonimiya hodisasi, deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Biroq, frazeologiyada leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, bunda ushbu hodisa ikki qarama-qarshi ma'noli frazeologik birlik o'rtasida amalga oshmaydi, balki, bitta frazeologik birlik tarkibidagi ikki qarama-qarshi ma'noli so'zlar o'rtasida amalga oshadi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

*Qui ne travaille pas, ne mange pas.* – *Ishlamagan tishlamaydi.*

*Avoir de bon et mauvais quarts d'heures.* – *Bir qarasa yomon, bir qarasa yaxshi bo'lmoq.*

Frazeologiyadagi bu kabi leksik antonimiya hodisasi frazeologik iboralarni tashkil etuvchi elementlardan mustaqil ma'noli so'zlar, yordamchi so'zlar yoki so'z birikmalari o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Xuddi shunday nuqtai nazardan olib qaraganda, fransuz frazeologiyasida leksik antonimiya hodisasi juda keng tarqalgan bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibidagi leksik qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Fransuz frazeologik birliklarida antonimik komponentlarni ko'plab uchratish mumkin. Ularni tahlil qilish jarayonida turfa xil holatlar namoyon bo'ladi. Xususan, quyidagi frazeologik birlik tarkibidagi antonimiya hodisasi leksik birliklar va grammatik shakllar orqali ifodalangan. Masalan:

*Celui qui travaille mange la paille, celui qui ne fait rien mange le foin .*

Ushbu frazeologik birlik tarkibidagi *la paille* (don) va *le foin* (somon) otlari, *travaille* (ishlaydi) va *ne fait rien* (hych narsa qilmaydi) fe'llari o'rtasida antonimik ma'no mujassamlashgan. Bu ibora tarkibidagi *la paille* (don) va *le foin* (somon) otlari frazeologik birlik ichidagi sof leksik antonimiya hodisasini tashkil etsa, *travaille* (ishlaydi) va *ne fait rien* (hych narsa qilmaydi) fe'llari esa grammatik vosita orqali ifodalangan antonimik hodisa bo'lib hisoblanadi. Shu kabi fe'l bilan ifodalangan boshqa antonimik komponentli frazeologik birliklarga ham e'tibor qilaylik. Masalan:

*Qui ne travaille pas, ne mange pas.*

*Il faut travailler en jeunesse pour reposer en vieillesse;*

*Se qui est fait, n'est plus à faire.*

*Il faut estimer ce que l'homme fait et non pas ce qu'il peut faire.*

*Après avoir taillé, il faut coudre.*

*c'est à moi à faire et à vous vous taire.*

Bu misollardagi fe'lli antonimiya hodisasi aslida antonim hisoblanmagan fe'llar orqali ifodalangan hollari ko'pchilikni tashkil etadi. Biroq ular frazeologik ibora tarkibida kelganda birikmaning ichki semantik ma'nosi doirasidagina antonim bo'lib kelmoqda. Binobarin, *travailler - manger, coudre-tailler, faire-se taire* fe'llari birikmadan tashqari holda antonim bo'la olmaydi. Ushbu holatning o'zi ham frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasining bir ko'rinishini aks ettirmoqda. Qolaversa, yuqoridagi misollarda *travailler - reposer* kabi fe'llar orqali sof antonimik juftliklar ham frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sifat bilan ifodalangan antonimik komponentli frazeologik iboralar ham fransuz tili frazeologiyasida ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan:

*Avoir de **bon** et **mauvais** quarts d'heures.*

***Mauvais** ouvrier ne trouve jamais **bon** outil.*

*On ne peut faire **bon** edifice sur **mauvais** fondement.*

Bu yerda *bon* va *mauvais* sifatlari sof antonimik komponentlarga yaqqol misoldir. Bu sifatlarning morfologik jihatdan rod kategoriyasi bo'yicha o'zgaradigan (*variables*) turga mansubdir. Qolaversa, sifatlarning otlashgan shakli ham frazeologik ibora tarkibidagi antonimik komponent bo'la olishi mumkin. Masalan:

*Selui qui mange **les dures**, manger **les mûres**.*

Shuningdek, ravishlar orqali ham frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasini ko'rsatish mumkin. Masalan:

*Ce qu'**aujourd'hui** tu peut faire au **lendemain** de diffère.*

*Ne sait qu'est **bien** qui **mal** nessays.*

*Se qui croit **soudain** périt le **lendemain**.*

Bu misollardagi *aujourd'hui* va *lendemain* ravishlari bevosita antonimik komponent hisoblanadi. Bu ravishlar semantik nuqtai nazardan payt ravishlari(*adverbes de temps*)ga mansubdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, til universalialaridan biri sanalgan antonimiya hodisasi tilning nafaqat leksik qatlamida balki, frazeologik qatlamida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda ushbu hodisa frazeologik antonimiya deb yuritiladi va u ikki frazeologik birlik o'rtasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari esa xuddi tilning leksik qatlamidagi singari leksik birliklar yordamida aks etadi. Ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish kabi so'zlar shular jumlasidandir.

### **2.3. Frazeologiya ichki sistemasida leksik antonimiyaning ifodalanish xususiyatlari**

Ushbu bo‘limning asosiy maqsadi frazeologiyaning ichki sistemasida leksik antonimiyaning ifodalanishi borliqni ifodalovchi yoki nominatsiya turlariga bog‘liq bo‘lgan leksik hamda frazeologik antonimlar o‘rtasidagi semantik farqni aniqlashdan iborat. Frazeologik antonimlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘pchilik tadqiqotlar leksik antonimlar bilan taqqoslanganda tilshunoslik sohasida nisbatan yangi jabha paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi<sup>1</sup>. Hozirgi zamon fransuz tilida qolaversa, boshqa bir qator tillarda leksik va frazeologik antonimlar hech qachon qiyosiy tadqiq etilmagan.

Vaholanki, tadqiq qilinayotgan birliklarning borliq hodisalarini ifodalash qobiliyati bilan belgilanadigan mazmunga xos jihatlarini o‘rganish tilda sistem aloqalarni o‘rnatishni va shuningdek, til nominatsiyasi muammosini qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan muhim zaruratni keltirib chiqaradigan sabablarni o‘rganishni taqozo etadi.

Qarama-qarshi turish kategoriyasi tilda mazmun jihatidan ham, qolaversa, tafakkur shakli jihatidan ham turli xil lingvistik va frazeologik antonimlar orqali ifodalanadi. Tildagi ushbu qarama-qarshilik kategoriyasi, ya’ni antonimiya hodisasi til lug‘at tarkibi sistem tavsifining keng tarqalgan munosabat turlaridan biri hisoblanadi. Fransuz frazeologiyasida ham bunday FBlar keng tarqalgan va ulardan foydalanish hollari tilda tez-tez uchrab turadi.

Frazeologik antonimiya umumlug‘at antonimiyasiga xos muammoning xususiy bir bo‘lagi sifatida o‘rganiladi. Shunday ekan, ushbu semantik kategoriyaga tegishli aloqalarning xususiyatlari to‘g‘risidagi muammoning

---

<sup>1</sup> Bentolila F. “Car” en français écrit // *Linguistique*. – Paris, 1986. – Vol. 22, fasc. 2. – P. 95-115; Clatigny M. La place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // “*Le français moderne*”. – Paris, 1973. N3. – P. 213-232

paydo bo'lishi tabiiydir.<sup>1</sup> Tadqiqotning asosiy materiali sifatida insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi leksik va frazeologik antonimlardan foydalanamiz. Masalan, *courageux – avoir du cœur, avoir de l'estomac, n'avoir pas froid aux yeux, avoir du sang dans les veines / lâche – avoir peur de son ombre, manquer d'estomac, n'avoir pas du sang dans les veines, avoir du sang de poulet.*

Tadqiqot materiali sifatida xuddi shunday ichki tematik guruhdagi birliklarning olinishi bejiz emas. Chunki, inson faoliyatining sifatiy-baholovchi tomoni antonimlar yasash uchun ancha sermahsul bo'lgan ekstralingvistik manbalardan biri hisoblanadi. Tilning obrazli ko'rinishi aynan ushbu guruhga xos FBlarda o'zining yorqin ifodasini topadi.

FBlarning inson xarakterini sifatiy jihatdan baholovchi funksional-semantik xususiyatlari sifatlardagi funksional-semantik xususiyatlar bilan mos keladi. Masalan:

*avoir la tête près du bonnet – être vif et emporté (g'ayratli bo'lmoq);*

*avoir la tête froide – être calme (vazmin bo'lmoq);*

*avoir les mains nettes – être parfaitement honnête (halol bo'lmoq).*

Odatda insonning har qanday xususiyati o'ziga muvofiq sifatlar bilan baholanadi. Bunday holat kvalifikativ-baholovchi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari sababli to'liq obyektiv qonuniyatlarga asoslangan. Ushbu sinfga xos sifatlar semantikasining o'ziga xos tomonlaridan birini sifatlarning ifodalanish xususiyati tashkil etadi. Ularning antonimlar bilan bo'lgan o'zaro munosabati tilshunoslar tomonidan bir necha bor ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, sifat nuqtai nazaridan qarama-qarshilik odatda antonimlarning klassik turi sifatida kuzatilgan. Leksik antonimlar paydo bo'lish darajasiga ko'ra gradatsion ko'rsatkichda ma'lum o'rinni egallaydi. Ular referensial sohasi uch

---

<sup>1</sup> Гак В.Г. О новейших работах по французской лексикографии // Филологические науки. – М., 1968. - № 6. – С. 109-110.

diapazonli ko'rsatkich tarzida, ya'ni belgi namoyon bo'lishining yuqori, o'rta, va past darajalariga mos keladigan sxematik ko'rinishda tasvirlanishi mumkin. Masalan, salqin ma'nosini ifodalovchi *frais* va issiq ma'nosini ifodalovchi *tiède* sifati o'rtacha darajaga ega bo'lgan holda bir xil masofada joylashgan. Sovuq ma'nosini *froid* va issiq ma'nosini ifodalovchi *chaud* sifatlari belgining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Jazillagan issiq ma'nosidagi *brûlant*, *ardent*, *bouillant*, *incandescent* sifatlari va muzlatadigan, achchiq sovuq ma'nosidagi *glacé*, *glacial* sifatlari belgining eng yuqori darajasini ifodalaydi.

Insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi sifatlarni ham bevosita darajalanishga ega. Masalan, *qizg'onchiq*, *xasis*, *tejamkor*, *saxiy*, *qo'li ochi*, *serzavq*, *jo'shqin*, *otashin*, *vazmin*, *loxas*, *sovuq* va hokazo. Biroq ularni belgilar paydo bo'lish darajasining ko'rsatkichi bilan taqqoslash jarayonida predmetlarga xos xususiyatlarni, ya'ni shakl, hajm va hokozolarni ifodalovchi sifatlarni antonimiyasini tahlil qilishdek, aniq natijalarga erishish mumkin emas.<sup>1</sup>

Frazeologiya sohasida tushunchalar o'rtasidagi chegaraning noaniqligi va tarqoqligi ancha yuqoridir.<sup>2</sup> Ma'lumki, FBlar semantikasi leksik birliklar semantikasiga qaraganda ancha murakkab tuzilishga ega.

FBlarning mazmun strukturasi turli xil qo'shimcha, semantik ma'no ottenkalari, emotsional-baholovchi, ekspressiv va funksional-stilistik elementlarning mavjudligi ma'lum belgini ifodalash darajasiga ko'ra gradatsion ko'rsatkichda ularni aniq farqlashga yordam beradi.

Masalan, yaxshilik va yomonlik tushunchalari fransuz tilida quyidagi frazeologik birliklar bilan ifodalanishi mumkin: *avoir bon cœur*, *avoir un cœur d'or*, *avoir le cœur tendre*, *avoir le cœur sur la main*, *être tout cœur* (yaxshilik tushunchasi), *avoir le cœur sec*, *avoir le cœur dur*, *avoir mauvais*

<sup>1</sup> Fradin B. Décrire un verbe // Lexique. – Lille, 1988. – P. 117-118.

<sup>2</sup> Гак В.Г. Лингвистические словари и экстралингвистическая информация // Вопросы языкознания. – М., 1987. – №2. – С. 10;



*cœur, être de glace* (yomonlik tushunchasi). Bu yerda qaysi FB yaxshilik va yomonlikning eng yuqori darajasini ifodalaydi, degan savol tugʻilishi tabiiy va unga aniqlik kiritish biroz mushkul ish. Chunki qanday qalb eng samimiy boʻlishi mumkin, «eng toza qalb»mi (*avoir le cœur tendre*) yoki «eng sof qalb»mi (*avoir bon cœur*), yoki boʻlmasa qanday qalb eng yomon boʻlishi mumkin «qalbi tosh»mi (*avoir le cœur dur*) yoki «qalbi sovuq»mi (*avoir le cœur sec*), degan savollar tugʻilishi tabiiy.

Bunday hollarda ular oʻrtasidagi sifatiy farq, yaʼni oʻziga xos qoʻshimcha semantik, emotsional-baholovchi va ekspressiv xususiyatlar diqqatni tortadi. Bunga koʻra frazeologik antonimlarning oʻziga xosligini aynan sifatiy farq nuqtai nazaridan leksik antonimlar bilan qiyoslagan holda oʻrganish taqozo etiladi.

Biz frazeologik antonimlarning yasalishidagi sifatiy farqning roli haqida batafsilroq toʻxtalmoqchimiz. Fransuz tilida «xasislik» maʼnosini ifodalovchi oʻnlab FB larni uchratish mumkin. Masalan: *être dur à la détente, être près de ses sous, avoir la main fermée, avoir les mains croches, faire des économies de bouts de chandelles, tondre sur un œuf*.

Bunday FB larning fransuz tilida koʻpchilikni tashkil etishi ularning xasislik tushunchasini mazmun strukturasiidagi turli xil qoʻshimcha semantik belgilar vositasida aniqlashtirishga asoslanadi. Fransuz frazeologiyasida xasislik tushunchasi quyidagi birliklar bilan ifodalanishi mumkin:

*avoir les mains /pattes croches* – nihoyatda xasis boʻlmoq;  
*avoir les mains crochus* – mayda-chuyda narsadan daromad qilish;  
*être près de ses sous* – taʼmagir boʻlmoq, oʻz foydasini uylamoq;  
*faire des économies de bout de chandelles* - qurumsq, ziqna boʻlmoq.

Bunday FB lar tarkibida son jihatdan sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar FB lar oʻrtasidagi farqning xususiyatini koʻrsata olmaydi: *avoir la main*

*fermée, être près de ses sous etc.* Keltirilgan FBlarning oxirgisida otning ko'plikda qo'llanilishi ma'no ottenkalarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.<sup>1</sup>

Saxiylik tushunchasi esa quyidagi FBlar orqali aniq ma'noga ega bo'lishi mumkin:

*avoir la main large - qo'li ochiq, saxiy bo'lmoq ;*

*avoir le geste large – mablag'ni osonlikcha sarf qilmoq;*

*jeter l'argent par les fenêtres - pulni o'ylamasdan sarf qilmoq;*

*manger son blé en herbe - haddan tashqari qo'li ochiq bo'lmoq.*

Bu yerdagi xasislik va saxiylik ma'nolari mavhum belgini ifodalaydi. Mavhumlik boshqa xususiyatlardan ajralib turadigan ma'lum xususiyat sifatida tushuniladi. Yuqorida keltirilgan FBlarda mavhum belgilar aniq ifodaga ega bo'ladi va yangi aniqlovchilar hamda yangi ma'lumotlar bilan boyiydi.

Yuqorida qarama-qarshi qo'yilgan belgilar (*bon-méchant, courageux-lâche, franc-hypocrite* ) referensial xilma-xillikning paydo bo'lishiga olib keladi. Agar qarama-qarshi qo'yilayotgan belgilar aniq ahamiyat kasb etsa, u holda ular shuncha aniq, obrazli va namunali tarzda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari obyektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi.

Leksik va frazeologik antonimlarning yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlari turlicha nominatsiya usullarida, ya'ni tildan tashqari voqelikni til vositasida u yoki bu obraz orqali aks ettirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Til birliklari nominatsiya nazariyasida borliq hodisalarini ifodalash usullari

---

<sup>1</sup> Gruaz C. Regles d'inference des graphèmes complexes du français contemporain //Pour une théorie de la langue écrite. – Paris, 1988. – P. 181-182.

jihatidan ikki sinfga bo'linadi. Birinchi sinfga obyekt belgilarining majmuini aks ettiradigan birliklar kiradi. Nominatsiyaning shunga o'xshash turi sintetik yoki murakkab nominatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi sinfga obyektни ma'lum bir belgiga ko'ra tavsiflovchi birliklar kiradi. Bunday birliklar analitik nominatsiyaga tegishlidir.

Mavhum belgilarni ifodalovchi va xabar beruvchi vazifasini bajaradigan sifatlar predikatli leksikaga tegishli bo'lib, ular kam ma'nolilikni va semantik elementarlikni keltirib chiqaradi. Bu narsa sifatlar o'rtasida rivojlangan antonimik munosabatlarning shakllanishiga bog'liqdir.

Shunday qilib, predmet va hodisalarni tavsiflovchi leksik jihatdan antonim bo'lgan sifatlar analitik nominatsiyaga xos birliklar hisoblanadi.

Bir-biri bilan antonimik munosabatda bo'lgan FBlar bir paytning o'zida bir nechta belgilarni ifodalagan holda ko'p belgili strukturaga egaligi bilan tavsiflanadi. Masalan, *avoir du sang dans les veines (être courageux, résolu)* birikmasi mazmunida «mard» ma'nosi bilan birga «qat'iyatli» ma'nosi yoki *avoir du sang de lièvre (être lâche, sans énergie)* asosida «qo'rqoq» ma'nosi bilan birgalikda «shijoatsiz» ma'nosi ham o'z ifodasini topgan. FBlarning ma'noviy tarkibida turli xil semantik belgilarning mavjudligi ifoda referensial ko'laminig oshishiga olib keladi. Keltirilgan FBlarning oxirgisi aniq va ko'rgazmali referentni shakllantiruvchi ko'p obrazli belgilar majmuini o'zida aks ettiradi.

Ko'p obrazli referentlarni o'zida mujassamlashtirgan frazeologik antonimlar ma'noning ancha to'liq va obrazli bo'lishini taqozo etadi. Chunki aniq sifat va insonga xos ma'lum xislat shaxsning ma'lum turiga xosdir. Leksik antonimlar esa qoidaga binoan boshqa belgilardan ajralib turadigan alohida xususiyatni ifodalaydi.

Shunday qilib, antonim FBlar predmetlarni belgilar jihatidan tavsiflovchi ko'p belgili semantik birliklar hisoblanib, nominatsiyaning sintetik birligi guruhiga kiradi.

## II bobga xulosa

1. Fransuz tilida antonimlarning yasalish usullari bir qancha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki soʻzga bir xil suffiksning qoʻshilishi, prifekslarning qoʻshilishi orqali ham antonim soʻzlarni hosil qilish barcha tillarga xos sarmahsul usullardan birdir. Ulardan ikki hodisa oʻrtasidagi qarama-qarshi holatni yuzaga keltiradigan bunday prifeksal va suffiksal shakllar berilgan soʻzning maʼno koʻlamini oʻzgartirishga xizmat qiladi.

2. Frazeologiyaning ichki sistemasida leksik antonimiyaning ifodalanishi bilan birga borliqni ifodalovchi yoki nominatsiya turlariga bogʻliq boʻlgan leksik hamda frazeologik antonimlar oʻrtasidagi semantik farqni aniqlashdan iborat boʻlib, bir-biri bilan antonimik munosabatda boʻlgan FBlar bir paytning oʻzida bir nechta belgilarni ifodalagan holda koʻp belgili strukturaga egaligi bilan tavsiflanadi. FBlar semantikasi leksik birliklar semantikasiga qaraganda ancha murakkab tuzilishga ega.

3. Leksik va frazeologik antonimlarning yuqorida koʻrsatilgan oʻziga xos xususiyatlari turlicha nominatsiya usullarida, yaʼni tildan tashqari voqelikni til vositasida u yoki bu obraz orqali aks ettirish qobiliyatida namoyon boʻladi. Til birliklari nominatsiya nazariyasida borliq hodisalarini ifodalash usullari jihatidan ikki sinfga boʻlinadi. Birinchi sinfga obyekt belgilarining majmuini aks ettiradigan birliklar kiradi. Nominatsiyaning shunga oʻxshash turi sintetik yoki murakkab nominatsiya sifatida namoyon boʻladi. Ikkinchi sinfga obyektning maʼlum bir belgiga koʻra tavsiflovchi birliklar kiradi. Bunday birliklar analitik nominatsiyaga tegishlidir.

4. FBlarning mazmun strukturasi turli xil qoʻshimcha, semantik maʼno ottenkalari, emotsional-baholovchi, ekspressiv va funksional-stilistik elementlarning mavjudligi maʼlum belgini ifodalash darajasiga koʻra gradatsion koʻrsatkichda ularni aniq farqlashga yordam beradi. Leksik antonimlar paydo boʻlish darajasiga koʻra gradatsion koʻrsatkichda maʼlum oʻrinni egallaydi. Ular referensial sohasi uch diapazonli koʻrsatkich tarzida,

ya'ni belgi namoyon bo'lishining yuqori, o'rta, va past darajalariga mos keladigan sxematik ko'rinishda tasvirlanishi mumkin.

5. Antonim FBlar predmetlarni belgilar jihatidan tavsiflovchi ko'p belgili semantik birliklar hisoblanib, nominatsiyaning sintetik birligi guruhiga kiradi.

**III BOB**  
**FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA - SEMANTIKA**  
**HODISA SIFATIDA**

**3.1. Frazeologiyada semantik oppozitsiyaning ifodalanish usullari**

Ma'lumki, frazeologik lug'atlar sistemasi turli xil FB(frazeologik birlik)lar, frazeologik va leksik sistemalar o'rtasidagi qonuniy munosabatlar yig'indisidan kelib chiqadi. "Elementli" aloqalar frazeologik oilani tashkil etadigan FB variantlaridan biri bo'lgan antonimik hodisada ham o'z ifodasini topishi mumkin. Bu hodisani batafsil tushunishda esa semantik jihatdan tahlil uning tub ma'no mohiyatini anglashda asosiy o'rin tutadi. Masalan, *Bien mener sa barque* - o'z ishini yaxshi olib bormoq ; *Mal mener sa barque* - o'z ishini yomon olib bormoq *tarzida, ammo ular so'zma-so'z tarjima qilinsa* o'z qayig'ini yaxshi yoki yomon olib bormoq (boshqarmoq) *deb tarjima qilinadi.*

FBlarning bunday turfa xil tarjimasi aynan ularning mohiyatini anglashda bir talay muammolar borligini ko'rsatadi. Bunda eng avvalo ularni ma'no anglatishida bevosita va bilvosita ya'ni ularning to'g'ridan-to'g'ri yoki shu so'zning ekvivalentini qo'llash orqali bilish mumkin. Buning uchun esa oddiy bir so'z va gaplarning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilish hollarini inobatga olgan holda farqlash joizdir. A.G.Nazaryan ta'kidlaganidek, obrazlilikning 3 xil shakli (konkretniy obraz, emotsionalniy obraz, mavhum obraz) reallikdagi voqea-hodisadan tortib, abstrakt tushunchalardagi ma'no - mazmuni teran idrok qilishga katta yordam beradi, mohiyatga oydinlik kiritiladi<sup>1</sup>.

Iboralarning sistem xususiyatini chuqur anglatadigan belgi bu variantlanish bo'lib, u leksemalarga qaraganda ancha keng tarqalgan. Qadimgi fransuz tili bo'yicha olib borilgan kuzatishlar FBlar

---

<sup>1</sup> А.Г.Назарян фразеология современного французского языка -М. 1976 с.-155.

evolyutsiyasining ko'p obrazli variantlanishdan bir obrazlilikka va antinormadan normaga qarab harakat qilganligidan dalolat beradi. Biroq hozirgi zamon fransuz tilida ham variantlangan antonimik iboralar ham uchraydi. Masalan:

*se lever du pied droit (du bon pied)-yaxshi kayfiyatda bo'lmoq ;*

*se lever du pied gauche (mauvais pied) –yomon kayfiyatda bo'lmoq.*

Xuddi shunday iboralarining alohida bir tarmog'i hisoblangan antonimiya hodisasi gapga teng iboralarda keng uchraydi. Masalan:

*Il est facile de dire- aytish oson ; Il est difficile de dire- aytish qiyin*

*C'est croyable- bo'lishi mumkin ; C'est incroyable -bo'lishi mumkin emas ;*

Ikkala misolda ham semantik jihatdan mavhumlik tushunchasidan holi bo'lgan holda aniq facile- difficile, croyable-incroyable sifatlari orqali antonimik munosabatda kelganligi bevosita tarjimada o'z ma'nosi va shaklida aks etgan. Xuddi shu kabi misollarga quyidagilarni ham keltirish mumkin.

*avoir froid- sovuqqotmoq ; avoir chaud- isimoq ;*

*avoir raison- haq bo'lmoq ; avoir tort -nohaq bo'lmoq ;*

Bu misollarga frazeologik iborali birikma tarzida qaraydigan bo'lsak, unda avoir fe'li yordamida froid-sovuq, chaud-issiq sifatlari va raison-haq, tort-nohaq so'zlari bilan bir butun birikma tashkil etib yaxlit bir ma'noni mujassam etgan.

Fransuz tilida antonimik iboralar ko'pincha ob-havoni ifodalashda keng qo'llaniladi. Bunda semantik ma'no oppozision mazmun kasb etgani barobarida, yuqoridagi kabi ular tarkibidagi so'zlarning ham qarama-qarshi ma'nolilari ishlatiladi. Masalan:

*Il fait beau -havo yaxshi; Il fait mauvais- havo yomon;*

*Il fait chaud - havo issiq; Il fait froid- havo sovuq.*

Fransuz tilidagi antonimik ma'noli iboralar semantik jihatdan tasniflanganda ularning asosan, uch xil turi tilda juda keng tarzda mavjudligi ko'zga tashlanadi. Bularga

- 1) holatni ifodalovchi,
- 2) kishilarning ichki hissiyotlarini ifodalovchi va
- 3) harakatni ifodalovchi antonimik ma'noli iboralardir. Masalan,

1) holatni ifodalovchi antonimik iboralar:  
*Aller bien -sog`ligi yaxshi bo`lmoq → Aller mal -sog`ligi yomon bo`lmoq;*

*Avoir froid- sovuqqotmoq → Avoir chaud -isimoq;*

*Etre bien mis-yaxshi kiyinmoq → Etre mal mis-yomon kiyinmoq;*

*Etre dans son mauvais jour - yomon kayfiyatda bo`lmoq → Etre dans son bon jour- yaxshi kayfiyatda bo`lmoq;*

- 2) kishilarning ichki hissiyotlarini ifodalovchi antonimi iboralar:

*Avoir le sang chau -qiziqqon bo`lmoq → Avoir le sang froid- sovuqqon bo`lmoq;*

*Avoir une courte vue - uzoqni ko`ra olmaslik → Avoir une longue vue - uzoqni ko`rabilmoq;*

- 3) harakatni ifodalovchi antonimik iboralar :

*Dire du mal de qn - biror kishini yomonlamoq → Dire du bien de qn - biror kishini maqtamoq.*

Qolaversa, A.M.Bushuy ta'kidlaganidek, tildagi FBlarni semantik nuqtai nazardan, xususan, ularga xos emotsional baholash, obrazlilik, ekspressivlik kabi xususiyatlarni o'rganish orqali ularning milliylik xususiyatini ham ochib berish imkoni paydo bo'ladi : ...сложную гамму эмоций, эмоциональных реакций, субъективных оценок, способы речевого воздействия на



*собеседника, образную, экспрессивную репрезентацию действительности, находит яркое выражения национальная самобытность языка*<sup>1</sup>.

Barcha tillardagi kabi fransuz tilida ham ibora va birikmalarni shu til nuqtai nazaridan tushunish va o'zbek tilida uni shu asosda tushuna bilish, avvalo tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, fransuz tilidagi frazeologik antonimlar lug'at tarkibida ko'plab uchrashini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga ularning to'g'ri tarjimada berilishi hamda o'ziga xos ifodalanish yo'llari mavjud bo'lib, ushbu xususiyatlar ularni tilimizga to'g'ridan-to'g'ri o'girishimizda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi.

Frazeologik antonimlar, umuman frazeologik birliklarni semantik jihatdan o'zbek tilida tushunabilishda yoki tarjima qilishda *analog* (ehtimol tutilgan bir qancha sinonimlardan bittasini tanlab olish. Har bir frazeologik birlikka va sintaktik shaklga bir nechta sinonimlik shakllari mos kelishi mumkin), *ekvivalent* (ma'lum zamon va makon uchun kontekstga bog'liq bo'lmagan doimiy bir xil ma'nodagi mos variant) va *kalka* (so'zma-so'z – tilda frazeologik ekvivalentlar yoki analoglar bo'lmaganda *kalkalashga* murojaat qilinadi) usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fransuz va o'zbek tillarining grammatik qurilishi, so'z yasash usullari hamda milliy urf-odatlari bir-birlaridan tubdan farq qilsalar-da, bu tillar ma'no- mazmuni jihatdan yaqin va aynan muqobil bo'lgan frazeologik antonimlarning variantlari ko'plab uchraydi. Bunday iboralarni o'zbek tiliga tarjima qilishda *analogik* usuldan foydalaniladi. Masalan:

<i>Fin comme l'ambre</i> <i>tulkidek ayyor, hiylagar</i>	<i>Fin comme une dague de plomb</i> <i>sodda, tozaqalb, sofdil</i>
-------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------

Ko'rinib turibdiki, ushbu iboralardagi *l'ambre* - *anbar* va *une dague de plomb* – *qo'rg'oshin xanjar* yoki bir xil ma'no anglatadigan *fin* va *fin*

<sup>1</sup> Бушуй А.М. Язык и действительность. – Ташкент. Фан: 2005. -С 102-103.

so'zlarining asl ma'nolari butunlay yo'qolib, ko'chma ma'noda ifodalangan. Ularni o'zbek tiliga o'girishda, albatta, semantik talqin qilgan holda tarjima qilish mumkin.

Fransuz tilida shunday antonimik frazeologik birliklar borki, ularni tarjimada o'zbek tilida mavjud bo'lgan *ekvivalentlar* bilan almashtirish mumkin. Masalan,

<i>Laborieux (yoki diligent) comme une abeille</i>	<i>Paresseux comme un loir</i>
<i>Asalaridek mehnatkash</i>	<i>Juda dangasa, yalqov</i>

Birgina o'zbek tilidagi *asalaridek mehnatkash* va *juda dangasa* iboralarini oladigan bo'lsak, fransuz tilida ifodalangan ushbu antonimik iboralarning shunchaki to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilishi oddiy birikma ko'rinishida bo'lib qoladi. Ushbu misoldagi *juda dangasa* iborasi  *paresseux comme un loir* tarzida berilgan. Fbdagi **loir** so'zining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosiga ko'ra *qishda uzoq vaqt uyquda bo'ladigan olmaxonga o'xshash hayvonning holatiga o'xshatish* orqali keltirilganligi bilan *asalaridek mehnatkash* iborasiga zid ma'noni hosil qilgan.

*Kalka* - *so'zma-so'z* tarjima qilish usulida frazeologik birliklar tarjimasiga u qadar mos kelavermaydi. Negaki, bu usul orqali antonimik frazeologizmlarning ma'nosi tamomila yo'qolishi yoki semantik ma'noning ma'lum darajada qochishiga olib keladi. Buni quyidagi misolda ko'rish mumkin:

<i>Simple (yoki facile) comme bonjour</i>	<i>Cela ne s'enfile pas comme des perles</i>
<i>Bundan osoni yo'q</i>	<i>O'ylanganidek oson emas</i>

Ushbu ibora to'g'ridan-to'g'ri tarjimada *salomdek oson,sodda*. Nutqda bunday tarjimaning qo'llanilishi hech qanday mazmun kasb etmaydi. Buni *bundan osoni yo'q* ko'rinishida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Frazeologik birligi so'zma-so'z tarjima qilinganda uning tarjimasi *marvariddek oson qo'lga kiritilmaydi* bo'lib chiqadi. Bu yerda asliyatdagi ma'no shu holatda qo'llamasdan bu frazeologik birlikni *o'ylaganidek oson emas* tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Bu yerda ikki qarama-qarshi ma'noli antonimik iboralarning o'zbek tiliga tarjima qilishda so'zma-so'z tarjima aslo o'rinli emas. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, bunda ma'nolarning yo'qolishi va frazeologik iboradagi o'xshatish xususiyatining ancha noo'rin qo'llanilishi ko'zga tashlanadi.

Shunday ekan, fransuz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tili nuqtai-nazaridan mosini topish frazeologik iboralar tarkibidagi o'xshatish komponentlariga e'tibor qilmasdan, ularning aynan o'zbek tilidagi muqobil variantlariga murojaat qilish semantik ma'no va tarjimaning yanada tushunarli va aniq chiqishiga yordam beradi.

### **3.2. Fransuz frazeologiyasida sifat va ravish frazeologik antonimiya vositasi sifatida**

Leksik-semantik jihatdan antonimik hodisalarni tahlil qilish asl so'z yoki gapning mohiyatini anglashga yordam beradi. "Leksik-semantik sathning asosiy birligini leksima, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma-xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi"<sup>1</sup>.

Til lug'at tarkibini o'rganish va tildagi alohida ma'noli elementlarning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Березен Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание – М.; ВШ, 1979. – с . 147.

Shuning barobarida antonimik ma'noli iboralarning, ya'ni frazeologik lug'at tarkibida uchraydigan zid ma'noli birliklarning sifat va ravish so'z turkumlari bilan qo'llanilish hollari ko'plab uchraydi. Binobarin, tildagi leksik birliklar o'rtasida sifat va ravish so'z turkumlari antonimik ma'no hosil qilishning eng sermahsul vositalaridan biri sanaladi. Masalan, fransuz tilida *grand-petit* (katta-kichik), *blanc-noir* (oq-qora), *haut-bas* (baland-past), *courageux-lâch* (jasur-qo'rqqoq), *bon-mauvais* (yaxshi-yomon) kabi sifatlar yoki *beaucoup-peu* (ko'p-kam), *tôt-tard* (erta-kech) *vite-lentement* (tez-sekin) kabi ravishlar tilda sof antonimik ma'no hosil qiluvchi leksik birliklar sanaladi. Shunday ekan, sifat va ravish so'z turkumiga xos so'zlar fransuz tilida qarama-qarshi ma'noli frazeologik birliklar yasashida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

Sifat orqali antonimik FB yasash		Ravish orqali antonimik FB yasash	
<i>âme blanche</i> - pokiza qalb, sof ko'ngil;	<i>âme noire</i> - yovuz qalb ;	<i>Parler bien</i> - yaxshi gapirmoq;	<i>Parler mal</i> - yomon gapirmoq;
<i>plaider coupable</i> - o'zini gunohkor deb bilmoq ;	<i>plaider innocent</i> - o'zini gunohsiz deb bilmoq	<i>Marquer bien</i> - yaxshi ko'rnmoq;	<i>Marquer mal</i> - yomon ko'rinmoq;

Fransuz tilidagi FB'larga xos bunday antonimiya hodisasi "leksik antonimiya" va "frazeologik antonimiya" tushunchalaridan [2] farq qilgan holda "FB tarkibidagi leksik antonimiya" hodisasi bo'lib hisoblanadi.

Agar ushbu holatga kengroq izoh beradigan bo'lsak, til universalialaridan biri sanalgan "leksik antonimiya" hodisasi faqat so'zlar ifodalayotgan semantik ma'no misolida amalga oshsa, "frazeologik antonimiya" hodisasi esa FB'lar ifodalayotgan semantik ma'no orqali namoyon bo'ladi. Biroq ularning ikkalasidan ham farqli ravishda mavjud

bo'lgan “*FB tarkibidagi leksik antonimiya* “ hodisasi FBlar tarkibidagi antonimik komponentlar asosida paydo bo'ladi. Ya'ni yuqorida keltirilgan misollardagi *blanche- oq* va *noir - qora* sifatlari yoki *bien – yaxshi* va *mal – yomon* ravishlari bir-birlariga qarama-qarshi ma'noli sof antonimik so'zlar bo'lib hisoblanadi. Bu holat aynan “ *leksik antonimiya* “ hodisasi hisoblansa, ularning ma'lum FB tarkibida faollashuvi esa “*FB tarkibidagi leksik antonimiya* “ hodisasi ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, “*FB tarkibidagi leksik antonimiya* “ hodisasi frazeologik iboralar ifodalayotgan semantik ma'noning doimo qarama-qarshi bo'lishini taqozo qilmasligi ham mumkin. Ya'ni ushbu FBlar semantikasi qarama-qarshi ma'nolarni ifodalamaslik hollari ham mavjud. Lekin fransuz frazeologiyasda ma'lum bir FB tarkibidagi komponentning antonimik shakllari bilan o'zgarishi orqali hosil bo'ladigan FBlar ifodalaydigan ma'no juda ko'pchilik hollarda zid ma'nolarni aks ettiradi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

*Cela est trop chaud – Bu xavfli.*

*Cela est peu chaud – Bu xavfli emas.*

*tant soit peu – birozgina.*

*tant soit beaucoup – juda ko'p.*

*savoir bien le monde –hammani yaxshi bilmoq;*

*savoir mal le monde – hammani yomon bilmoq.*

Yuqorida qarama-qarshi qo'yilgan belgilar, ya'ni *trop, peu, bien, mal* komponentlari FBlarga xos referensial xilma-xillikning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu misollarda qarama-qarshi qo'yilayotgan belgilar aniq ahamiyat kasb etganligi bois ular shuncha aniq, obrazli va namunali tarzda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga

xos xususiyatlari obyektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Shunday ekan, FB tarkibidagi leksik antonimiya hodisasi semantik referentsiallikning qarama-qarshi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi.

### 3.3. Frazeologik predloglarnig antonimik xususiyatlari

Fransuz frazeologiyasida eng ko'p ishlatiladigan sermahsul komponentlardan biri, bu – predloglar bo'lib hisoblanadi. Azaldan lingvistlar tilda mavjud predloglarning semantikasi va ular o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga katta qiziqish bilan qarab kelganlar. SHunday ekan, mazkur maqolada fransuz frazeologiyasida qo'llanilgan predloglarning qarama-qarshi ma'no aks ettiradigan turi, ya'ni antonim predloglar semantikasi va ularning ma'lum bir ma'no doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari borasida fikr yuritiladi.

Tilda predloglar morfologik jihatdan o'zgarmas so'zlar hisoblangan holda ular so'z birikmalari va gaplarda bosh bo'laklar va tobe bo'laklar o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalashga hamda ular o'rtasidagi tobelik aloqalarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi til birligi sanaladi. Agar ular tilning ikki qatlami, ya'ni leksikologiya va frazeologiya doirasida olib qaralsa, ular “*leksik predlog*” va “*frazeologik predlog*” atamalari bilan nomlanishi mumkin bo'ladi.

Bunda leksik predloglar deganda ma'lum bir lisoniy birlikdan tashkil topgan so'zlar tushunilsa, frazeologik predloglar esa, ikki va undan ortiq qismlardan tuzilgan va hamda semantik va grammatik xususiyati bo'yicha nisbatlanuvchi frazeologik birliklarni tushunamiz. Masalan:

---

<sup>1</sup> Сувонова Н.Н. Тилда лексик ва фразеологик антонимлар номинацияси тамойилларининг мослашуви (француз тили мисолида) // Тил тарққіётининг деривацион қонуниятлари: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. - Самарқанд : 2009. –Б. 163-167.

<b>Leksik predloglar</b>	<b>Frazeologik predloglar</b>
<i>à</i>	<i>au temps de,</i>
<i>de</i>	<i>au bout de</i>
<i>pour</i>	<i>plus tot</i>
<i>en</i>	<i>plus tard</i>
<i>sur</i>	<i>au debut de</i>
<i>sous</i>	<i>a la fin de</i>

Hozirgi vaqtda lingvistlar tildagi predloglarning semantikasi va tizimli munosabatlarini o'rganishga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Bunday qiziqish shu bilan izohlanadiki, til ma'nolarining prizmasi vaqtni idrok etishni aniqlashga imkon beradi. Tilshunoslikda predloglar sohasidagi tadqiqotlarning so'nggi natijalariga tayangan holda, nutqning ushbu qismi uchun quyidagi ta'rifiga amal qilamiz: predloglar deganda biz morfologik o'zgarmas so'zlar hamda so'z birikmalari va gaplarda bosh bo'laklar va tobe bo'laklar o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalashga va ular o'rtasidagi tobelik aloqalarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, qoldiq ma'nosiga ega frazeologizmlar sinfini tushunamiz.

Tadqiqotimizda “*leksik predlog*”, “*frazeologik predlog*”, atamalaridan foydalanamiz. Biz tadqiq etayotgan tillarda predloglarning ahamiyati va rolini tahlil etgan holda shunday xulosaga keldikki, ushbu atamalar barcha tilda qo'llanilishi mumkin. Mazkur bo'lim doirasida shuni aniqlashni lozim deb hisoblaymizki, frazeologik predlog deganda ikki va undan ortiq qismlardan tuzilgan va hamda semantik va grammatik xususiyati bo'yicha nisbatlanuvchi, vaqt va davomiylikni ifodalovchi frazeologik birliklarni tushunamiz. Masalan, *au temps de*, *au bout de*.

Zamonaviy lingvistik ta'limotlar shunga asoslanadiki, dunyodagi har qanday til ma'lum darajada aniq bir tizimdan iborat bo'lib, bundagi elementlar (qismlar) bir-biri bilan mustahkam bog'langan va ma'lum bir

qat'iy munosabatlarga egaligi bilan xarakterlanadi.<sup>1</sup> Tildagi tizimli munosabatlarning namoyon bo'lishidagi shakli uni tashkil etuvchilarining o'zaro nisbiy qarama-qarshilikda bo'lishi, ya'ni, bunda antonimik munosabatlar aks etadi. Tadqiqotimizda biz tilshunoslikda umumqabul qilingan fikrlarga qo'shilgan holda, antonimiya deganda qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan leksik yoki frazeologik birliklarning semantik munosabatlarini tushunamiz<sup>2</sup>.

Tadqiq etilayotgan tillardagi frazeologik predloglar antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Predloglarning antonimiyasi o'ziga xos xarakterga egaligi faktini inkor etib bo'lmaydi, chunki predlog o'z funksiyasini ikki yoqlama sintaktik aloqalar sharoitida bajaradi va buning uchun hech bo'lmaganda qisman mos keladi.

Mikromatn - bu predlogning ma'nosi amalga oshiruvchi, ro'yobga chiquvchi birlik,<sup>3</sup> degan fikrga qo'shilamiz. Frazeologik predloglar ancha yorqin semantik tuzilmaga egaligi tufayli ular bosh matndan tashqarida qo'llanilgan bo'lsa ham, antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyatini namoyon etadi.

Antonimlilik turlicha tuzilmali turlardagi predlaoglar bilan namoyon bo'ladi: leksik, yasama va tub frazeologik turlar kabi. Predloglarning qarama-qarshiligi tadqiq etilayotgan tillardagi ikki tarkibli, uch tarkibli frazeologik predloglarda namoyon bo'ladi:

*Plus tot - ungacha ancha (nimaga) – plus tard - unchalik emas (nimaga) ;*

*Au debut de - boshlanishigacha (nimaga) – au bout de - oxirigacha (nimaga);*

*A la fin de - undan oldin (nima) – au debut de - undan keyin (nima) va boshqalar.*

---

<sup>1</sup> Riegel, M. Grammaire methodique du francais / M. Riegel, J-C. Pellat, R. Rioul. Paris, 2009.-P.110.

<sup>2</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. М., 2008.-С.312.

<sup>3</sup> Шиганова, Г. А. Система лексических и фразеологических предлогов в современном русском языке : дис. д-ра филол. наук. Челябинск, 2002. –С. 211.



Vaqtni ko'rsatuvchi sematik predloglar fransuz tilida uch tarkibli FBlar shaklida ko'proq uchraydi :

*A dater de – a la fin de*

*Au debut de – au bout de*

*A partir de – a la fin de*

*Boshlanishiga (nimani)* frazeologik predlogi *yakuniga (nimani)* predlogi bilan ikkita antonimik juftlikni tashkil etadi, ular o'z navbatida o'zaro sinonimik ham hisoblanadi. Oxiriga (nimani) va tugashiga (nimani) predloglari o'z ma'nosini tugash – otning uchinchi ma'nosi “tamom bo'lish”, “yakunlanish” predloglari va tugash – otning ikkinchi ma'nodagi “ma'lum zamonda sodir bo'luvchi nimaningdir so'nggi vaqti”, shuningdek unga ulanuvchi vaqt davri hisobidan shakllanadi. Frazeologik predlog hisoblanuvchi – boshlanishiga esa o'z ma'nosida “birinchi vaqtda, nimaningdir ilk davri, qandaydir harakatning birinchi bosqichi, qandaydir hodisaning rivojlanishi” kabi o'zak ma'nolarga ega bo'ladi.

Fransuz tilida *au debut de* predlogi *a la fin de* hamda *au debut de* predlogi bilan antonimik munosabatlarda bo'ladi, ular tegishlicha *moment ou se termine, s'acheve qch; terme ou bien periode, partie terminale* semasiga ega bo'lib, keying ikkita predlog sinonimik hisoblanadi va *au debut de* predlogiga qarama-qarshilikni tashkil etadi, bu *commencement d'une chose, d'une action* ma'nosini anglatadi. Shuning uchun *au debut de* predlogi *a la fin de* va *au debut de* predloglari bilan antonimik munosabatga kirishadi. Masalan :

*au debut du jour - a la fin du jour - au bout du jour.*

*J'aurais du rester un chat, comme j'étais au debut de tout le processus, independant et fier, la queue superbe* (P. Filion).

*Et, moi, au bout de deux ans, je decide de raser votre maison* (Debats de l'Assamblee Nationale).

*Mais a la fin de 1988, la situation s'est ameliee et les quotas ont ete hausses a 55000 tonnes illustre Albert (P. Gravel).*

*Je te le dirai peut-etre a la fin de la saison (R. Buck).*

*... est-ce que les policiers vont quand meme etre capables de prendre leur retraite a partir de 25 ans? (Les travaux parlementaires Journal des debats).*

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, frazeologik predloglar orasida qarama-qarshi juftliklar vujudga kelishida quyidagi model eng samarali hisoblanadi:

### **leksik predlog + ot + leksik predlog**

Bu avvalo shu bilan bog'liqki, fransuz tilida kelishik munosabatlari predlog bilan ifodalanadi.<sup>1</sup> Fransuz tilida juft otlar har bir juftlikda qatnashadi, biroq shunday juftliklar ham borki, ular ravish orqali ifodalanadi:

<i>plus tot - plus tard,</i>	<i>avant de - plus tard,</i>
<i>pres de - loin de,</i>	<i>a dater de - a la fin de,</i>
<i>en-suite de - jusqu'a,</i>	<i>a partir de - a la fin de,</i>
<i>a l'avance - ensuite de,</i>	<i>a compter de - a la fin de.</i>

Frazeologik predloglarning qarama-qarshi ma'nosi ko'chma so'z tarkiblariga o'tkaziladi, ular mustaqil qo'llanilganda antonim hisoblanadi. Masalan,

*au debut de - au bout de, plus tard - plus tot, des a present - jusqu'a la fin de.*

Shu tariqa, ushbu birliklar o'z ma'nosiga ko'ra qarama-qarshi va qarama-qarshilikni frazeologik predloglarga ham olib o'tadi. Ot – *debut - commencement d'une chose, d'une action* semalariga ega bo'ladi, *bout* – ot bo'lib, ikkinchi ma'noda – *limite, extreme, terme, fin* semalariga ega bo'ladi.

<sup>1</sup> Franckel, J.-J., Paillard, D. Grammaire des prepositions [Электронный ресурс] T.1.Paris, 2007. - 223p. URL:<http://books.google.ru>

Ushbu birliklar xuddi ikkita qarama-qarshi ma'nolar sifatida va mos ravishda, o'zlari tarkibiy qismlar hisoblanuvchi frazeologik predloglarga ham qarama-qarshi ma'noni olib o'tadi. Masalan :

*Et d'ailleurs le president lui-meme, M. Dub-reuil, a meme felicite le gouvernement, au debut de l'annee, sur ce sujet, apropos de cette entente-la* (Les travaux parlementaires, N°42).

*Alors, vous pouvez vous imaginer, M. le President, un policier qui soit au debut de sa carrière ou qui a, mettons, 15 ans d'anciennete et qui est sur le point d'avoir une promotion...* (Les travaux parlementaires, № 34).

*L'entente preliminaire disait qu'elles passeraient a 25 millions la deuxieme annee, 35 millions au bout de cinq ans, et que par la suite elles progresseraient pour augment-er pendant la periode future* (Les travaux parlementaires, № 42).

*L'entente preliminaire disait qu'elles passeraient a 25 millions la deuxieme an-nee, 35 millions au bout de cinq ans, et que par la suite elles progresseraientpour augmenterpendant la periode future* (Les travaux parlementaires № 42).

Vaqtни ko'rsatuvchi frazeologik predloglarning tarkibiy qismlarida ham antonim shakllar ishtirok etadi. Masalan, antonimik juftlik bo'lgan doira ichida va doiradan tashqarida antonimik juftligida qarama-qarshilik ma'nosiga aynan leksik tub predlog hamda leksik yasama predloglar yordamida erishiladi. Predlog birinchi ma'nodagi “*predmetning joylashgan o'rnini ko'rsatish*” semasini va “*biror-bir chegaraning ichkarisida*” degan differensial semani, ular ot bilan qo'llanilib, “*predmetning joylashgan o'rnini ko'rsatish*” semasini va “*tashqarida*” degan differensial semalarni faollashtiradi. Ma'lumki, bunda guruhiiy semalar o'zaro mos keladi.

Leksik va shuningdek, vaqtни ko'rsatuvchi frazeologik predloglarda antonimik juftlikning mavjudligi fransuz tilida makonga bog'liq holatlar

bilan taqqoslanganda kamroqdir. Bu avvalo, makonning uch o'lchamliligi, vaqtning esa bir o'lchamliligi bilan bogliq. Aynan shuning uchun frazeologik predloglarda antonimik munosabatlarga kirishish qobiliyati yuqoriroqdir.

Zamonaviy lingvistik ta'limotlar shunga asoslanadiki, dunyoda mavjud har qanday til ma'lum darajada tartiblashgan tizimdan iborat bo'lib, bundagi elementlar (qismlar) bir-biri bilan mustahkam bog'langan va ma'lum bir qat'iy munosabatlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Tildagi tizimli munosabatlarning eng muhim mezonlaridan biri uni tashkil etuvchilarining o'zaro nisbiy qarama-qarshilikda bo'lishi, ya'ni antonimik munosabatlar hisoblanadi. Tilshunoslikda umumqabul qilingan fikrlarga qo'shilgan holda, antonimiya deganda, qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan leksik yoki frazeologik birliklarning semantik munosabatlar turini tushunamiz<sup>1</sup>

Barcha tillardagi singari fransuz tilida ham frazeologik predloglar antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Predloglar antonimiyasining o'ziga xos xarakterga egaligi faktini inkor etib bo'lmaydi, chunki predlog o'z funksiyasini ikki yoqlama sintaktik aloqalar sharoitida bajaradi va buning uchun hech bo'lmaganda qisman mos matn zarur bo'ladi. Shu o'rinda mikromatn - bu predlogning ma'nosi amalga oshiruvchi vosita degan fikrga qo'shilish joizdir. Frazeologik predloglar ancha yorqin semantik tuzilmaga egaligi tufayli ular bosh matndan tashqarida qo'llanilgan bo'lsa ham, antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyatini namoyon etadi.

Antonim xususiyat turlicha tuzilmali predloglar orqali namoyon bo'ladi. Predloglarning qarama-qarshiligi fransuz tilida ikki va uch tarkibli frazeologik predloglarda namoyon bo'ladi:

*Plus tot – plus tard;*

*Au debut de – au bout de ;*

*A la fin de – au debut de.*

---

<sup>1</sup> Лингвистический энциклопедический словарь [Электронный ресурс]. -М., 2008. –С. 312

Fransuz tilida *au debut de* predlogi à *la fin de* hamda *au debut de* predlogi bilan antonimik munosabatlarda bo'ladi. Ular tegishlicha *moment ou se termine, s'acheve qch; terme ou bien periode, partie terminale* semasiga ega bo'lib, keyingi ikkita predlog sinonim hisoblanadi va *au debut de* predlogiga qarama-qarshilikni tashkil etadi, bu *commencement d'une chose, d'une actionni* anglatadi. Shuning uchun *au debut de* predlogi a *la fin de* va *au debut de* predloglari bilan antonimik munosabatga kirishadi. Masalan, *au debut du jour - a la fin du jour - au bout du jour*.

Fransuz frazeologiyasida predloglar antonim juftlikni hosil qiladi va ularning ifoda shakllari esa ravishli hamda fe'li asosga ega bo'lishi mumkin. Masalan:

- ravish orqali ifodalangan predlogli iboralar:

*plus tot - plus tard,*  
*pres de - loin de,*  
*en-suite de - jusqu'a,*  
*a l'avance - ensuite de,*  
*avant de - plus tard.*

- fe'l orqali ifodalangan predlogli iboralar:

*a dater de - a la fin de,*  
*a partir de - a la fin de,*  
*a compter de - a la fin de.*

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, fransuz frazeologiyasidagi vaqtni ifodalovchi iboralar antonim juftlik hosil qila oladi va ularning ifoda vositalari esa keng qamrovli emasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ular ifodalayotgan "vaqt" ma'nosi asosan mazkur ob'ektning *boshi* va *oxiri* kabi semantik tushunchalar bilan bog'liqdir.

### 3.4. Frazeologik antonimiyaning maqollarda aks etishi

Maqol va matallar xalq donoligi timsoli bo'lib, ular turmushning turli jabhalarida paydo bo'lgan, inson tilining bezagi va ko'rki hisoblanib kelgan. Maqol va matallar son hamda xarakter jihatdan shunchalik ko'p va turli-tumanki, hatto ularni biron tilda to hozirgacha ma'lum bir ramkaga solib ulgurganlaricha yo'q<sup>1</sup>.

Maqollar so'z san'ati va xalq ijodi mahsuli sifatida o'z ma'nosida ham ko'chma ma'noda ham qo'llanilishini inobatga olgan holda til frazeologik nuqtai-nazaridan ular ma'no ko'lami kengligi va tilning boy belgi xususiyatlariga ega ekanligi ko'zga tashlanadi.

Xuddi shunday xususiyatlar fransuz xalq maqollarida ham keng tarzda uchraydi. Ularda ham o'zbek xalq maqollaridek rang-baranglik, obrazlilik, tasviriy hodisalar qamrab olinadi. Zero, maqol qayg'usi - xalq qayg'usi, maqol g'azabi - xalq g'azabi, maqol kulgusi - xalq kulgusi va maqol kinoyasi xalq kinoyasidir<sup>2</sup>

Shunday ekan, ma'lum bir maqol tarkibida qarama-qarshi ma'noli til birliklari orqali antonimik xislatlarni ifodalash xususiyati mavjudligi barchaga ma'lum. Bu holat aynan maqollarga xosdir. Masalan:

*Il faut **beaucoup** faire et **peu** parler – ko'p ishla, oz so'zla.*

*Aujourd'hui en fleurs, **demain** en pleurs - o'ning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'.*

Ma'lum bir maqol tarkibida antonimik ma'noning aks etish holati fransuzcha maqollarga xos semantik xususiyatlardan biri sanaladi. Ularning paydo bo'lishi turli belgilar orqali namoyon bo'ladi, ya'ni shakliy va ma'noviy jihatdan har xillik hamda ma'nodagi o'zaro zidlik holatlari shular jumlasidandir. Masalan:

---

<sup>1</sup> Нарзикулов А., Мирзаев И. Французча мақол ва маталларнинг ўзбек тилидаги муқобиллари. Самарқанд. – 1981, -6.3.

<sup>2</sup> Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. Т.: 1961, -6. 7.

*Ce qu'on apprend au berceau dure jusqu'au tombeau.*

*Beshikdan to qabrgacha ilm izla.*

Ushbu maqolda ikki otning - *berceau* va *tombeau* komponentlarining o'zaro ma'noviy jihatdan qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ezgulik-yovuzlik, rostgo'ylik-yolg'onchilik, adolatparvarlik-adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalarning bir-biriga taqqoslab ifoda etilishi ham fransuzcha maqollarda juda keng uchraydi.

*Ami au prêtre, ennemi au render. - Olishda do'st, qaytarishda dushman.*

Bunda *ami* va *ennemi* otlari qarama-qarshilikni yuzaga keltirgan holda yaxshilik va yomonlikning bir-biri bilan doimo yonma-yon tarzda yashashini ifodalamoqda. Shuningdek, yuqorida keltirilgan qarama-qarshi xislatlar fransuz xalqi tomonidan yaratilgan bu kabi maqollarda keng ma'noda o'z aksini topadi.

Hozirgi vaqtga qadar bu xildagi maqollarning fransuz tili boyish manbalari sifatida muhim o'rin egallashi, ularning batafsil o'rganilgan sistem aloqalari, keng qamrovli fransuzcha maqollar lug'atining mavjudligi fransuz tilining qadimdan maqollarga boy ekanligidan dalolatdir.

Qarama-qarshi ma'nolar orqali insonlarga xos xususiyatlarni maqollarda ifodalanishi ham fransuz tilida keng uchraydi.

Masalan, *Bouche de miel, coeur de fiel* - tili shakar, ichi zahar.

*Miel*-asal- *fiel*-zahar so'zlarining frazeologik talqinda kishiga nisbatan uning qanday ekanligini ko'rsatadi.

A.G.Nazaryan o'zining fransuz frazeologiyasini diaxronik sohada o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarining birida fransuz tili frazeologik fondi rivojlanishiga alohida e'tibor qaratdi<sup>1</sup>. Uning ta'kidlashicha, o'rta asrlarda fransuz frazeologiyasi avvalambor, paremiologiyalardan iborat ekanligi o'sha

---

<sup>1</sup> Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка –М: ВШ, 1987. -288с.

davrlardagi barcha FBlarning 50 foizini maqol va matallar tashkil etganligi buning yaqqol dalilidir.

Yuqoridagi kabi maqollarning semantik jihatdan tasnif etsak, ularning tarjimada berilishidan tortib, aniq ma'no-mazmuni kengroq namoyon bo'ladi. Bunda asosan, antonimik xarakterdagi iboralarning komponent-semantik tahlili, bir-biri bilan farqlagan holda o'z ma'nosida qo'llanuvchi va ko'chma ma'noda (obrazli) qo'llanilishi tasnif etiladi.

*Aujourd'hui en chère et demain en bière- bugun bor ertaga yo`q.*

Bunda *chère* va *bière* otlari *aujourd'hui* va *demain* ravishlari bilan birgalikda ikkala komponentlarning ham ma'lum bir obrazlilik asosida ko'chma ma'noda qo'llanilganligini ko'rsatadi. Komponent-semantik tahlilda *ravish+sifat* modeli maqollarga xos ekanligini ko'rsatadi, ya'ni ijtimoiy muloqotdagi gap konstruksiyalaridan butunlay farqlanadi. Xuddi shu tarzda boshqa xildagi maqollarni idrok etish orqali xalqning boy madaniy merosga ega ekanligi birgina maqollarda keng yoritilganligining o'zidan ham anglash qiyin emas. Yana shuni ham aytish mumkinki, ushbu maqollarning ma'no mohiyati, so'z o'rne, antonimik munosabatdagi turg'unlik ifodasi tarjimada ham to'la saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

*Tout sourit à la jeunesse tout s'assombrit pour la vieillesse - yoshlikning mehnati qarilikning rohati.* Bunda *la jeunesse* (yosh) va *la vieillesse* (qari,keksa) otlarining o'z ma'nosida qo'llanilishi fransuz xalqining sodda tarzda fikrlashi bu maqolning qadimdan mavjudligini ko'rsatadi. Negaki, ular o'z kechirgan tarixiy bosqichlaridan ibrat olib, yoshlikning bebaho davr ekanligi o'sha davrdan e'tirof etib kelingan.

Maqol va matallarning ma'no jihatdan oppozitsion xarakterga ega bo'lgan ko'rinishini, ya'ni FBlarning antonimik ko'rinishi iste'molda boshqa xildagi maqollarga nisbatan kengroq qo'llaniladi. Negaki, qadimdan barcha xalqlardagi kabi fransuz xalqining ham hayotni teranroq anglashi davomida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan barcha hodisalarning ijobiy tomonlari



bilan birga salbiy xarakterlarining mavjudligi ularning dunyoqarashida shakllanib boradi.

### III bobga xulosa

1. Tildagi FBlarni semantik nuqtai nazardan, xususan, ularga xos emotsional baholash, obrazlilik, ekspressivlik kabi xususiyatlarni o'rganish orqali ularning milliylik xususiyatini ham ochib berish imkoni paydo bo'ladi. Fransuz tilidagi antonimik ma'noli iboralar semantik jihatdan tasniflanganda ularning asosan, uch xil turi tilda juda keng tarzda mavjudligi ko'zga tashlanganligi aniqlandi.

2. Fransuz frazeologiyasida sifat va ravish frazeologik antonimiya vositasi orqali yasalgan leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari obyektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, FB tarkibidagi leksik antonimiya hodisasi semantik referentsiallikning qarama-qarshi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi.

3. Fransuz frazeologiyasidagi vaqtni ifodalovchi iboralar antonim juftlik hosil qila oladi va ularning ifoda vositalari esa keng qamrovli emasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ular ifodalayotgan "vaqt" ma'nosi asosan mazkur ob'ektning *boshi* va *oxiri* kabi semantik tushunchalar bilan bog'liqdir.

4. Fransuz frazeologiyasida predloglar antonim juftlikni hosil qiladi va ularning ifoda shakllari esa ravishli hamda fe'lli asosga ega bo'lishi mumkin. Frazeologik predloglar ancha yorqin semantik tuzilmaga egaligi tufayli ular bosh matndan tashqarida qo'llanilgan bo'lsa ham, antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyatini namoyon etadi.

5. Maqol va matallarning ma`no jihatdan oppozitsion xarakterga ega bo`lgan ko`rinishini, ya`ni FBlarning antonimik ko`rinishi iste`molda boshqa xildagi maqollarga nisbatan kengroq qo`llaniladi. Negaki, qadimdan barcha xalqlardagi kabi fransuz xalqining ham hayotni teranroq anglashi davomida ijtimoiy hayotda sodir bo`layotgan barcha hodisalarning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy xarakterlarining mavjudligi ularning dunyoqarashida shakllanib boradi.

## X U L O S A

Frazeologik birliklarlar tilning eng ifodali vositasi hisoblanadi. Bekorga ularni tilning gavhari deb atashmaydi. Tilimizda mavjud bo'lgan frazeologik birliklarlar so'zlarga qaraganda ancha keng va obrazli ma'nolarga ega.

Ilmiy adabiyotlarda frazeologik birliklarning leksik tarkibi barqaror, doimiy, o'zgarmas sifatlari bilan talqin etiladi. Biroq tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ularning leksik tarkibi anchagina o'zgaruvchandir. Bundan kelib chiqadiki, umumtildagi frazeologik birliklarning o'zgaruvchanlik sabablarini o'rganish zaruriyati tug'iladi. Tabiat qonunlariga ko'ra har bir predmet, hodisa bir-birini to'ldiradi va shu bilan birgalikda bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi doirasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Frazeologiya leksik-semantik sath obykti sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, leksik-semantik sathning asosiy birligini leksema, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi. So'z so'z birikmalari tarkibiga kiradi, so'z yasovchilar va morfologik kategoriyalarni qurishda ishtirok etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma-xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi.

2. Frazeologiyada, asosan frazeologik antonimiya hodisasida ichki va tashqi kontekst ikki frazeologik birlik o'rtasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari esa xuddi tilning leksik qatlamidagi singari leksik birliklar yordamida aks etadi. Ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish kabi so'zlar shular jumlasidandir. Ya'ni ushbu vositalar bilan ifodalanish turlari bir gap yoki ikki gap va so'zlarning o'rtasida amalga oshadigan jarayondir.

3. Antonimiya hodisasining lingvistik tavsifi tilning murakkab bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisa ekanligidan kelib chiqqan holda, uni ilmiy o'rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushunishda antonimiya (qarama-qarshi) metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

4. Fransuz tili frazeologiyasida antonamiya hodisasida insonlarning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarini ifodalovchi antonamik munosabatlar mavjudligi va fransuzcha frazeologik antonamiya hodisasi birikmalar orasidagi xuddi shunga o'xshash insonlarning ichki-kechinmalari fe'l so'z tukumiga xos bo'lgan so'zlar bilan birikib. ko'plab frazeologik birliklarni hosil qilishi mumkinligini ta'kidlash o'rinlidir. *Comme* komponentli fransuzcha antonimik ma'noli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga talqin qilishda fransuz tilidagi qiyoslash ob'ektlari o'zbek tiliga umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda ularni ushbu til sohiblarining madaniyati va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda umumiy lingvistik jihatdan semantik ma'noni saqlagan tarzda talqin etilishi maqsadga muvofiq.

5. Fransuz tilida antonimlarning yasash usullari bir qancha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki so'zga bir xil suffiksning qo'shilishi, prefekslarning qo'shilishi orqali ham antonim so'zlarni hosil qilish barcha tillarga xos sarmahsul usullardan birdir. Ulardan ikki hodisa o'rtasidagi qarama-qarshi holatni yuzaga keltiradigan bunday prefiksial va suffiksial shakllar berilgan so'zning ma'no ko'lamini o'zgartirishga xizmat qiladi.

6. Tildagi FBlarni semantik nuqtai nazardan, xususan, ularga xos emotsional baholash, obrazlilik, ekspressivlik kabi xususiyatlarni o'rganish orqali ularning milliylik xususiyatini ham ochib berish imkoni paydo bo'ladi. Fransuz tilidagi antonimik ma'noli iboralar semantik jihatdan tasniflanganda ularning asosan, uch xil turi tilda juda keng tarzda mavjudligi ko'zga tashlanganligi aniqlandi. Fransuz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tili nuqtai-nazaridan mosini topish frazeologik iboralar tarkibidagi o'xshatish

komponentlariga e'tibor qilmasdan, ularning aynan o'zbek tilidagi muqobil variantlariga murojaat qilish semantik ma'no va tarjimaning yanada tushunarli va aniq chiqishiga yordam beradi.

7. Fransuz frazeologiyasida sifat va ravish frazeologik antonimiya vositasi orqali yasalgan leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari obyektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, FB tarkibidagi leksik antonimiya hodisasi semantik referentsiallikning qarama-qarshi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi.

8. Tildagi FB'larni semantik nuqtai nazardan, xususan, ularga xos emotsional baholash, obrazlilik, ekspressivlik kabi xususiyatlarni o'rganish orqali ularning milliylik xususiyatini ham ochib berish imkoni paydo bo'ladi. Fransuz tilidagi antonimik ma'noli iboralar semantik jihatdan tasniflanganda ularning asosan, uch xil turi tilda juda keng tarzda mavjudligi ko'zga tashlanganligi aniqlandi.

9. Fransuz frazeologiyasidagi vaqtni ifodalovchi iboralar antonim juftlik hosil qila oladi va ularning ifoda vositalari esa keng qamrovli emasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, ular ifodalayotgan "vaqt" ma'nosi asosan mazkur ob'ektning *boshi* va *oxiri* kabi semantik tushunchalar bilan bog'liqdir.

10. Fransuz frazeologiyasida predloglar antonim juftlikni hosil qiladi va ularning ifoda shakllari esa ravishli hamda fe'lli asosga ega bo'lishi mumkin. Frazeologik predloglar ancha yorqin semantik tuzilmaga egaligi tufayli ular bosh matndan tashqarida qo'llanilgan bo'lsa ham, antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyatini namoyon etadi.

11. Maqol va matallarning ma`no jihatdan oppozitsion xarakterga ega bo`lgan ko`rinishini, ya`ni FBlarning antonimik ko`rinishi iste`molda boshqa xildagi maqollarga nisbatan kengroq qo`llaniladi. Negaki, qadimdan barcha xalqlardagi kabi fransuz xalqining ham hayotni teranroq anglashi davomida ijtimoiy hayotda sodir bo`layotgan barcha hodisalarning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy xarakterlarining mavjudligi ularning dunyoqarashida shakllanib boradi.

12. Maqol va matallarning ma`no jihatdan oppozitsion xarakterga ega bo`lgan ko`rinishini, ya`ni FBlarning antonimik ko`rinishi iste`molda boshqa xildagi maqollarga nisbatan kengroq qo`llaniladi. Negaki, qadimdan barcha xalqlardagi kabi fransuz xalqining ham hayotni teranroq anglashi davomida ijtimoiy hayotda sodir bo`layotgan barcha hodisalarning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy xarakterlarining mavjudligi ularning dunyoqarashida shakllanib boradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. N a z a r i y m a n b a l a r :

1. .Каримов И. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш –энг олий саодатдир. –Тошкент: Ўзбекистон, 2015. - 310 б.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “O’zbekiston milliy insiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2000 15, 20, 188-bet.
3. Abdouchoukourova L.A Stylistique du français modern Tachkent-2004 –p 37.
4. Arrivé M, F.Gadet, M.Galmiche. La grammaire d’aujourd’hui. –Paris, 1986. –P. 66
5. Bentolila F. “Car” en français écrit // Linguistique. – Paris, 1986. – Vol. 22, fasc. 2. – P. 95-115.
6. Clatigny M. La place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // ”Le français moderne”. – Paris, 1973. N3. – P. 213-232;
7. Forest R. Sémantisme entelechique et affinité descriptive: Pour une analyse des verbes symétriques ou neutres du français // Bull de la Soc. De ling. De Paris. – 1988. – T. 83, fasc. 1 – P. 137-162.
1. Fradin B. Décrire un verbe // Lexique.– Lille, 1988. – P. 117-118.
8. Gruaz C. Regles d’inference des graphèmes complexes du français contemporain //Pour une théorie de la langue écrite. – Paris, 1988. – P. 181-182.
9. Mortureux. M.F, La lexicologie entre langue et discours. Armand Collin VUEF, 2001. –P. 188.
- 10.Place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // ”Le français moderne”. – Paris, 1973. N3. – P. 213-232;
- 11.Riegel, M. Grammaire methodique du francais / M. Riegel, J-C. Pellat, R. Rioul. Paris, 2009.-P.110.

12. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: ВШ, 1979. – С.147.
13. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: ВШ, 1979. – С.147.
14. Болотнова Н.С. О некоторых особенностях и новых направлениях стилистических исследований художественной речи в конце XX в. // Русистика: Лингвистическая парадигма конца XX века. – Спб., 1999.– С. 120-123.
15. Бушуй А. Язык и действительность. – Ташкент. Фан: 2005. -С 102-103  
Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVIII- XIX веков. – М., 1982. – С.6, 83-84.
16. Гак В.Г. Лингвистические словари и экстралингвистическая информация // Вопросы языкознания. – М., 1987. – №2. – С. 10.
17. Гак В.Г. Лингвистические словари и экстралингвистическая информация // Вопросы языкознания. – М., 1987. – №2. – С. 10;
18. Гак В.Г. О новейших работах по французской лексикографии // Филологические науки. – М., 1968. - № 6. – С. 109-110.
19. Гак В.Г. О новейших работах по французской лексикографии // Филологические науки. – М., 1968. - № 6. – С. 109-110.
20. Коммуникативно-прагматические аспекты фразеологии / Отв. ред. контрастивном лексическом словаре // Преподавание языка и
21. Кунин А.В. Английская фразеология. - М.: ВШ, 1970. – 344 с.
22. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – лингвистической дисциплины // Избр. труды, т. 3. –Лексикология и лексикография. – М., 1977. –С. 64-98.
23. Маматов А.Е. История и теория языковой нормы. - Шымкент, 2006. - 96 с.



24. Мощанская О.Л. Картина мира в художественном восприятии англосаксов и древних русичей // Филологические науки. – М., 2000. - №1. – С. 32-33.
25. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка -М. 1976 с.-155, -288с.
26. Нарзикулов А., И. Мирзаев Французча мақол ва маталларнинг ўзбек тилидаги муқобиллари. - Самарқанд 1981. -40б
27. Насруллаева Н.З. Фразеологическая образность как объект перевода//Таржима назарияси ва муаммолари. – Тошкент: УзДЖТУ, 2006. – С. 85-86.
28. Новикова Н.С., Черемисина Н.В. Многомирие в реалии и общая типология языковых картин мира // Филологические науки. – М., 2000. - №1. – С. 40-41.
29. Ожегов С.И. О структуре фразеологии // Лексикографический сборник. Вып. – М., 1957. – С. 31-32.
30. Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960. – С. 94.
31. Протасова Е. Ю. Функциональная прагматика: вариант психолингвистики или общая теория языкознания ? // Вопросы языкознания. – М., 1999. - №1. – С. 142-143.
32. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Тошкент – 1992, -378 б.
33. Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. - Самарқанд: СамГУ, 1973. – 223 с.  
Руссиса. – ХИИИ. – Будапест, 1989. – С. 91-111.
34. Саломов Ғ. Мақол ва идиомалар таржимаси. Т.: 1961, -б. 7.
35. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1987. – С. 42.
36. Сувонова Н.Н. Тилда лексик ва фразеологик антонимлар номинацияси тамойилларининг мослашуви (француз тили

- мисолида) // Тил тарққиётининг деривацион қонуниятлари: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. - Самарқанд : 2009. –Б. 163-167.
- 37.Сувонова Н.Н. Француз тилидаги хасислик ва сахийлик маъносидаги фразеологик бирликларнинг ўзига хос айрим хусусиятлари // Хорижий филология. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2002. № 4.– Б. 19-21.
- 38.Сувонова Н.Н. Француз фразеологиясида икки режалилик ва унинг ўзига айрим хусусиятлари // Ҳозирги дунё лисоний қиёфаси ва тилшуносликнинг методологик асослари: Республика илмий-амалий анжумани. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – Б. 105-106.
- 39.Тираспольский Г.И. Система языка и системность в языке//филологические науки. М., 1999, №6, -С. 37-38
- 40.Ўзбек халқ мақоллари. –Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1989. -511 б.
41. Умбаров Н., Ҳамрокулов Г. *Ҳозирги замон француз тили лексикологияси*. Тошкент, «Ўқитувчи», 1996. –Б.72.
- 42.Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати, -Тошкент, 1985. – 144 б.
- 43.Цоллер В.Н. Эмоционально-оценочная энантиосемия фразеологизмов // Филологические науки. М., 2000. №4. – С. 56-57.
44. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: ВШ, 1969. – 342 с.
- 45.Шиганова, Г. А. Система лексических и фразеологических предлогов в современном русском языке : дис. д-ра филол. наук. Челябинск, 2002. –С. 211.

## 2.Lug’atlar :

1. Dictionnaire des œuvres littéraires de la langue française en quatre volumes. – Paris, 1994. – 2158 p.

2. Dictionnaire ouzbek - français. – Paris, 2001. – 321 p.
3. Genouvrier E., Desirat C., Horde T. Dictionnaire des synonymes. – Paris, 2001. – 743 r.
4. Godefroy F. Dictionnaire de la langue française classique. 8 éd. I-III. – Paris, 1998-2000. – 750 p.; 784 p.; 851 p.
5. Hachette. Dictionnaire encyclopédique en couleur. –Paris,1997.–2066 p.
6. Ibragimov X., A.Mamadaliyev va boshqalar. Dictionnaire Français-Ouzbék, - Toshkent. 2008, -587b.
7. Larousse. Dictionnaire des difficultés de la langue française. – Paris, 1992. – 435 p.
8. Le petit Larousse illustré. – Paris, 2001. – 1786 p.
9. Le Robert. Dictionnaire historique de la langue française en deux volumes. – Paris, 1995. – 2400 p.
10. Nouvelle encyclopédie Bordas en dix volumes.– Paris, 1990.–6096 p.
11. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. - Nouv. ed. rev. et augm. – Paris, 1984. –1035 p.
12. Sylvie Blanchard, Dominique Korach, Jean Pencreach, Mèriem Varone *Vocabulaire* Editions Nathan 1995, Paris –p 169.
- 13.Лингвистический энциклопедический словарь. М., 2008.-С.312.
14. Гак В.Г., Кунина И.А., И.П.Лалаев, Н.А. Мавшович, Я.И.Рецкер, О.А.Хортак Французско-русский фразеологический словарь М., 1963. –1112 с.

### **3. Internet manbalari:**

1. Franckel, J.-J., Paillard, D. Grammaire des prepositions [Электронный ресурс] Т.1.Paris, 2007. - 223р. URL:http://books.google.ru
2. Лингвистический энциклопедический словарь [электронный ресурс]. -М., 2008. –С. 312
3. [www.collinslanguage.com](http://www.collinslanguage.com)
4. Ziyonet kutubxonasi

## I L O V A

### FRANSUZCHA ANTONIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR RO'YXATI VA ULARNIBG O'ZBEKCHA TALQINI

<p>âme blanche pokiza qalb, sof ko'ngil</p>	<p>âme double ikkiyuzlamachi, munofiq</p>
<p>âme noire yovuz qalb</p>	<p>âme pur sof qalb</p>
<p>âme double ikkiyuzlamachi, munofiq</p>	<p>âme noble oliy himmat qalb</p>
<p>arriver à bon port eson-omon kelmoq, osoyishta hayot kechirmoq</p>	<p>avoir des paroles ensemble avec qn. birov bilan janjallashmoq</p>
<p>avoir la bourse large qo'li ochiq , saxiy bo'lmoq</p>	<p>avoir la serve bonne bilagi kuchga to'la bo'lmoq, xasis bo'lmoq</p>
<p>avec abondance de cœur ochiq ko'ngillilik bilan</p>	<p>avoir la main croche qo'li qattiq (xasis) bo'lmoq</p>
<p>avoir la langue légère o'ylamasdan gapirmoq</p>	<p>avalier de l'eau og'ziga talqon solib olmoq</p>
<p>avoir la tête à l'envers esankirab qolmoq, aqldan ozmoq</p>	<p>avoir le bon esprit aql-farosati joyida bo'lmoq</p>
<p>avoir la bouche sucrée yoqimtoy bo'lmoq, shirinsuxan bo'lmoq</p>	<p>avoir les nerfs à fleur de peau achchig'i tez, serjahl bo'lmoq</p>
<p>avoir la tête embrassée lapashang, landovur bo'lmoq</p>	<p>avoir l'humeur haute yuragida o'ti bor, o'ktam bo'lmoq</p>
<p>avoir la main heureuse omad kulib boqmoq</p>	<p>avoir la main malheureuse omad yuz o'girmoq</p>
<p>avoir la tête embrassée lapashang, landovur bo'lmoq</p>	<p>avoir du muscle zabardast, pahlavon bo'lmoq</p>
<p>avoir une bouche comme le métrô og'zi qulog'ida bo'lmoq, boshi osmonga etmoq</p>	<p>avoir une épine dans le cœur yuragiga qil sig'maslik, ko'ngli yorishmaslik</p>
<p>avoir le ventre plein qorni to'q bo'lmoq</p>	<p>avoir l'estomac creux o'lgiday och bo'lmoq</p>
<p>avoir tête du bon lait mustahkam sog'likka ega bo'lmoq</p>	<p>avoir qch. dans le casquin mazasi yo'q bo'lmoq, tobi qochmoq</p>

avoir la tête embrassée lapashang, landovur bo'lmoq	avoir le bon esprit aql-farosati joyida bo'lmoq
avoir de l'esprit comme quatre nihoyatda aqlli bo'lmoq	avoir la lune dans la tête aqldan ozmoq, yengil tabiat bo'lmoq
avoir le bon esprit aql-farosati joyida bo'lmoq	avoir la tête dure kaltafahm, zehni past bo'lmoq
avoir un sentiment pour qn sevib qolmoq	avoir mauvais air ko'ngli qolmoq, ko'ngli sovimoq
à midi sonnante roppa-rosa kunduz soat 12 da	à minuit sonnante roppa-rosa kech soat 12 da, yarim tunda
avoir bon pied, bon œil yanada sog'lom, tetik bo'lmoq	être enrhumé comme un loup nihoyatda qattiq shamollamoq
barbe grise qariya, oq soqol	beaux jours de la vie hayotning eng ajoyib pallasi (yoshlik)
bon prince ko'ngli ochiq, oliyanob odam	chercheur de barbets firibgar odam
de la main droite qonuniy, qonunga mos ravishda	de la main gauche noqonuniy, qonunga xilof ravishda
bonheur d'expressions gapga chechanlik, notiqlik	calfeutrer sa bouche mum tishlamoq, og'ziga talqon solmoq;
le cœur blanc oq ko'ngil, pokiza, sof dil qalb	cœur de tigre qahri qattiq, berahm, shafqatsiz odam
être folle jinni bo'lmoq	être raisonnable aql-idrokli bo'lmoq
être pressé shoshilmoq	être entement imillamoq
être content xursand bo'lmoq	être désolé xafa bo'lmoq
faire son entrée dans le monde paydo bo'lmoq, dunyoga kelmoq	faire son paquet yo'lga otlanmoq, vafot etmoq
faire la fortune de qn birovga baxt ato etmoq, yordam bermog	faire les gros ouvrages qora (eng og'ir) ishlarni bajarmoq
faire (rendre) hommage birovning hurmat-izzatini joyiga qo'ymoq, tan bermog, hurmat bilan esga olmoq	fouler aux pieds Oyoq osti qilmoq, tahqirlamoq
faire la quete sadaqa so'ramog, xayr-ehson to'plamoq	faire ses largesses choy-chaqa bermog, sadaqa qilmoq

femme de composition facile yengil tabiat, suyuq ayol	femme d'honneur ba'mani, iffatli, xulq-atvorli ayol
grand comme les deux mains bo'yi bir qarich bo'lmoq, uddaburon odam	un grand diable bo'yi terakday odam, esi past odam
un grand sec oriq, ozg'in, qotmadan kelgan odam	gros comme un cochon semiz, to'ladan kelgan
homme de cabale ichi qora odam	homme de conscience haqiqatgo'y, vijdoni pok inson
homme de conscience haqiqatgo'y, vijdoni pok inson	homme de contrebande kezi kelganda vijdonini ham sotuvchi odam
homme de bon sens bama'ni, sog'lom firкли kishi	homme de cabale ichi qora odam
homme de Dieu dindor, xudojo'y, mo'min odam	ignorant comme une carpe o'qimagan, nodon, johil odam
homme de peine xizmatkor odam (erkak)	vivre en seigneur boy-badavlat yashamoq
homme de bon sens bama'ni, sog'lom firкли kishi	servelle de moineau tovuq miya
jouer de farces xushchaqchaq, ochiq odam, hazilkash	lime sourde ilon yog'i yalagan, pixini yorgan odam
plaidés coupable o'zini aybdor, gunohkor deb bilmoq	plaider innocent o'zini aybsiz, gunohsiz hisoblamoq
la plaine étoile yulduzli osmon	le plancher des vaches quruqlik, zamin
parler comme un perroquet ko'p gapirmoq, vaysamoq, valdiramoq	prêter silence lom-lim demaslik, churq etmaslik
porter qn. dans son sein chin dildan, chin qalbdan sevmoq	prendre en haine ixlosi qaytmoq, ko'ngli qolmoq
denouer sa chaîne yomon ish qilishga yo'l ochib bermoq, birov bilan orani ochiq qilmoq	se donner le mot bir-biriga so'z bermoq, ahdu-paymon qilmoq
se donner la mort o'z joniga qasd qilmoq	donner le jour à dunyoga keltirmoq, hayot baxsh etmoq

temps chargé bulutli havo	temps humain mayin, issiq havo
toutes jambes oyoqni qo'lga olib, g'izillab	trainer sa peau behuda lallayib yurmoq
vieillard vert tetik chol	une vieille sempiternelle munkillagan kampir
Laborieux comme une abeille Asalaridek mehnatkash	Paresseux comme un loir Juda dangasa
Doux comme un agneau Qo'zichoqdek yuvosh	féroce comme un tigre Yo'lbarsdek yovvoyi, badjahl
Libre comme l'air Qushdek ozod	Être comme un chien à l'attache Qo'li bog'liq bo'lmoq
Fin comme l'ambre O'tkir aql sohibi, ziyrak	Fin comme une dague de plomb Kaltafahm, zehni past
Méchant comme un âne Eshakdek iflos	Bon comme le (bon) pain Nondek aziz, pok
Beau (belle) comme un ange. Farishtadek go'zal	Laid comme le péché Gunohdek xunuk, jirkanchli
Chanter comme un ange Chiroyli ohangda kuylamoq	Chanter comme une seringue Juda yomon kuylamoq
Jouer comme un ange Juda yaxshi chalmoq, o'ynamoq	Jouer comme un sabot Juda yomon chalmoq, o'ynamoq
Ecrire comme un ange Chiroyli husnixatda yozmoq	Ecrire (griffonner) comme un chat Xunuk yozmoq
Droit comme un arbre tayoqdek to'ppa-to'g'ri	Droit comme une faucille O'roqdek egri
Droit comme une règle Haqiqatgo'y, rostgo'y	Faux comme un jeton Soxta, ikkiyuzlamachi
Jeune comme l'aurore Juda yosh	Vieux comme le monde Juda kekxa, qarigan
Rapide (rigide) comme une barre de fer Qat'iyatli, matonatli	Souple comme un jonc. Bo'sh, qat'iyatsiz, ko'ngilchan
Fleurer (sentir) comme un baume Xushbo'y hid taratmoq	Puer comme un bouc Badbo'y hid chiqarmoq
Fort comme un boeuf Kuchli, baquvvat	Faible comme un enfant Nimjon, kuchsiz, zaif
Sec comme (du) bois Qup-quruq	Trempé (mouillé) comme une soupe. Ho'l, shalabbo bo'lgan, ivib ketgan

Simple (facile) comme bonjour Bundan osoni yo'q	Cela ne s'enfile pas comme des perles O'ylaganidek oson emas
Heureux comme un bossu baxti qora, baxtsiz odam	Heureux comme un roi Juda ham baxtli
Rire comme un bossu yiqilib qolguncha kulmoq	Pleurer comme une Madeleine Odamni yig'isini kelturgidek yig'lamoq
Rond comme une boule Shardek yumaloq	Mince comme un fil Toladek ingichka
Chaud (ardent, brûlant) comme braise Cho'g'dek issiq, laxcha	Froid comme (du,le,un) marbre Toshdek sovuq
Vorace comme un brochet ochko'z,yeb to'ymas	Sobre comme un chameau Nafsi tiyiq, o'zini (nafsini) tiygan, sabr- qanoatli
Dur (sec) comme un caillou Toshdek qattiq	Mou comme du coton. Paxtadek yumshoq
Ignorant comme une carpe Nodon, johil, o'qimagan	Savant comme un livre Bilimli, o'qimishli
Muet comme une carpe Og'ziga tolqon solganday, miq etmaydi	Bavard comme une pie Vaysaqi, mahmadona, ko'p gapiradigan odam
S'ennuyer comme une carpe Vaqtini zerikarli o'tkazmoq	S'amuser comme un roi Vaqtini chog' o'tkazmoq
Aller comme un charme Yarashmoq	Aller comme un tablier à une vache Sigirga fartuk kiygizib qo'ygandek, yarashmaslik, xunuk ko'rinmoq
Agile comme un chat Mushuk kabi chaqqon	Lourd comme un éléphant Fildek og'ir
Ecrire comme un chat O'qib bo'lmaydigan tarzda xunuk yozmoq	Ecrire comme un ange Chiroyli husnixatda, tushunarli yozmoq
Vivre comme chien et chat It mushuk bo'lib yashamoq	Vivre comme (des) frères Aka-uka bo'lib yashamoq, ahil bo'lib yashamoq
Amer comme chicotin Aloe sokidek achchiq	Doux comme le miel Asaldek shirin
Fidèle comme un chien Itdek vafodor	Traître comme Judas Sotqin, xiyonatkor



Mince comme du papier à cigarette Sigaret qog'ozidek yupqa	Épais comme un mur Devordek qalin
Maigre comme un clou Gugurtcho'pdek arriq	Gras comme un moine Semiz, yog'li
Mou comme du coton Paxtadek yumshoq	Dur comme (du,le) fer Temirdek qattiq
Sec comme un cotret Cho'p tayoqdek arriq	Gros comme un muid Bochkadek semiz
Rapide comme l'éclair Yashin tezlikda	Lent comme un escargot Shilliqqurtdek asta,sust
Lourd comme un éléphant Fildek og'ir	Léger comme un oiseau Qushdek yengil
n'avoir pas froid aux yeux mard, jasur bo'lmoq	avoir du sang de poulet qo'rqq, lapashang bo'lmoq
plaider coupable o'zini gunohkor deb bilmoq	plaider innocent o'zini gunohsiz deb bilmoq
Parler bien yaxshi gapirmoq	Parler mal yomon gapirmoq
Marquer bien yaxshi ko'rnmoq	Marquer mal yomon ko'rinmoq
Cela est trop chaud Bu xavfli	Cela est peu chaud Bu xavfli emas
tant soit peu birozgina	tant soit beaucoup juda ko'p
savoir bien le monde hammani yaxshi bilmoq	savoir mal le monde hammani uncha yaxshi bilmaslik
Bien mener sa barque o'z ishini yaxshi olib bormoq	Mal mener sa barque o'z ishini yomon olib bormoq
se lever du pied droit yaxshi kayfiyatda bo'lmoq	se lever du pied gauche yomon kayfiyatda bo'lmoq
Il est facile de dire aytish oson	Il est difficile de dire aytish qiyin
C'est croyable bo'lishi mumkin	C'est incroyable bo'lishi mumkin emas
avoir froid sovuqqotmoq	avoir chaud isimoq
avoir raison haq bo'lmoq	avoir tort nohaq bo'lmoq

Aller bien ishlari yaxshi bo`lmoq	Aller mal ishlari orqaga ketmoq
Etre bien mis yaxshi kiyinmoq	Etre mal mis Xunuk kiyinmoq